

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**Qo'l yozma huquqida
UDK 658.01+6P2.15.7(575.1)**

**SHUKUROV IZZAT IKRAMOVICH
Korxona boshqaruvini axborotlar bilan ta'minlash samaradorligini oshirish
yo'llari**

**5A230201- Menejment (infratuzilma)
Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertasiya**

Ilmiy rahbar: I.f.d., prof. B.Yu Xodiev

Toshkent 2013 yil

M U N D A R I J A:

Kirish	3
I. Bob. Korxona boshqaruvini axborot bilan ta'minlash manbalari va axborot tizimining nazariy asoslari	8
1. Korxona boshqaruvida kommunikatsiya va internetning ahamiyati.....	8
2. Korxona boshqaruvida axborotlar tizimi va uning bo'g'inlari.....	18
3. Korxona boshqaruvida xujjatlarni yuritish jarayonining ahamiyati.....	25
I. Bob bo'yich xulosa.....	32
II. Bob. "Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi" unitar shuba korxonasida axborot bilan ta'minlash manbalari va ulardan foydalanish holati	33
1. "Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi" unitar shuba korxonasining umumiy faoliyati tahlili.....	33
2. "Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi" unitar shuba korxona boshqaruvida axborotdan foydalanish tahlili.....	47
3. "Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi" unitar shuba korxonasi boshqaruvini zamonaviy dasturlar bilan ta'minlash tahlili.....	53
II. Bob bo'yich xulosa.....	61
II. Bob. O'zbekiston Respublikasida axborot kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlanish muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari	62
1. Korxonada elektron axborot tizimini samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari	62
2. Korxonada elektron axborot kommunikatsiya infratuzilmasini samarali joriy etish istiqbollari	68
III. Bob bo'yich xulosa.....	74
Xulosa	75
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	77

KIRISH

Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi. Bugungi kunda O'zbekiston kuchli fuqorolik jamiyati qurish yo'lidan borar ekan, bu sharoitda jamiyat hayotida tub islohotlar o'tkazish va modernizatsiyalash kundalik ehtiyojga aylanadi.

XXI asr kishilik jamiyati tarixida va hayotida rivojlangan «Axborot texnologiyalari asri» sifatida kirib keldi. Ushbu yangi asr mamlakatlar, xalqlar va insonlar hayotida, tarixida o'zining o'lgan o'zgarishi va yangilanishi bilan juda katta tarixiy rol' o'ynadi. Ma'lumki, biz zamonaviy komp'yuter va telekommunikatsiya tizimlari hamda texnologiyalarini yanada rivojlantirishga g'oyat muhim e'tibor qaratmoqdamiz.¹ Jumladan, bizning mamlakatimiz ham ushbu voqe'likdan chetda qolmagan holda islohotlar jarayoniga jadallik bilan kirib bormoqda. Zero, bugun jamiyatimiz oldida turgan eng dolzarb masala "...mamlakatimizni modernizatsiya qilish va erkinlashtirishni, siyosiy huquqiy va iqtisodiy tizimni demokratik yangilashni, yurtimizda fuqorolik jamiyatini shakllantirishni davom ettirishdir."²

Bundan tashqari, "axborot-kommunikatsiya va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi chora-tadbirlar va loyihalarni jadal amalga oshirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biz o'zimizga shuni aniq tasavvur etishimiz kerakki, iqtisodiyotning barcha sohalariga, kundalik hayotimizga zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlarini keng joriy etish bo'yicha tub va ijobiy ma'nodagi portlash effektini beradigan o'zgarishlarni amalga oshirmasdan turib, istiqboldagi maqsadlarimizga erishish qiyin bo'ladi."³

¹ Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.// Xalq so'zi, 2011 yil 22 yanvar.

² Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda nutqi.// O'zbekiston ovozi, 2012 yil 1 sentyabr.

³ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi hamda 2012 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yonalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza// Xalq so'zi, 2013 yil 18 yanvar.

Ushbu jarayon mamlakatimiz taraqqiyotining yanada yuksalishiga va xalq hayotining tobora faravonlashuviga olib keladi. Biz erishgan ulkan marralarning eng muhimi eski tizimdan butunlay voz echib, mamlakatimizni isloh etish va demokratlashtirish yoʻlidan dadil borayotganimiz va bu jarayonning hech qachon ortga qaytmaydigan qatʼiy va izchil tus olganligidir.⁴

Zero, Prezidentimiz I.Karimov taʼkidlaganlaridek, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hali-beri davom etayotgan ogʻir bir sharoitda iqtisodiyotimizning yanada barqaror rivojlanishini taʼminlash, uni diversifikatsiya va modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash borasidagi ishlarni izchil davom ettirishimiz zarur.⁵

Bugun Oʻzbekistonda ham jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida tub islohotlar oʻtkazilmoqda va ulugʻ bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda.

Albatta bu mamlakatimizning uzoq va davomli manfaatlari taqazo etgan holatlarda va keskin vaziyatlardan chiqish va ular tugʻdiradigan uammolarni hal etish zarur boʻlganda iqtisodiyotda davlat tomonidan boshqaruv usullari qoʻllanishi va bunday yondashuv ohir oqibatda oʻzini oqlashi natijasidir.⁶

Mazkur magistrlik dissertasiya mavzusining dolzarbligi quyidagilar bilan belgilanadi:

- Oʻzbekiston Respublikasida axborot kommunikatsiya infratuzilmasining ahamiyati;
- Korxona miqiyosida axborot tizimini joriy qilish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yoʻllarini oʻrganishning nazariy tahlili;
- Oʻzbekiston Respublikasining axborot kommunikatsiya infratuzilmasining erishilgan yutuqlari.

⁴ Karimov I.A.Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yoʻlini izchil davom ettirish- taraqqiyotimizning muhim omilidir.// Ishonch. 2010-yil 8-dekabr.

⁵ Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish — ustuvor maqsadimizdir.-T.: Oʻzbekiston. 2010. – 5 bet.

⁶ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, Oʻzbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yoʻllari va choralari. -T.:Oʻzbekiston, 2009. - 8 bet

Shu sababdan O'zbekiston axborot kommunikatsiya infratuzilmasining o'rnini tadqiq qilish bugungi kunning dolzarb vazifalardan biridir.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Mazkur magistrlik dissertasiyada ob'ekt misolida O'zbekiston Respublikasining "Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi" unitar shuba korxonasi o'rganildi. Ob'ektni o'rganish uchun qo'yilgan vazifalar:

- "Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi" unitar shuba korxonasining umumiy faoliyati tahlili;
- "Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi" unitar shuba korxona boshqaruvida axborotdan foydalanish tahlili;
- "Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi" unitar shuba korxonasi boshqaruvini zamonaviy dasturlar bilan ta'minlash tahlili.

Magistrlik dissertasiyaning maqsad va vazifalari. Mazkur dissertasiyaning asosiy maqsadi, O'zbekistonda korxona boshqaruvini axborot bilan ta'minlash manbalari va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llarini o'rganishdan iboratdir.

Magistrlik dissertasiyaning vazifalari quyidagilardir:

- Korxona boshqaruvida kommunikatsiya va internetning ahamiyati;
- Korxona boshqaruvida axborotlar tizimi va uning bo'g'inlari;
- Korxona boshqaruvida xujjatlarni yuritish jarayonining ahamiyati;
- "Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi" unitar shuba korxonasining umumiy faoliyati tahlili;
- "Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi" unitar shuba korxona boshqaruvida axborotdan foydalanish tahlili;
- "Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi" unitar shuba korxonasi boshqaruvini zamonaviy dasturlar bilan ta'minlash tahlili;
- Korxonada elektron axborot tizimini samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari;

- Korxonada elektron axborot kommunikatsiya infratuzilmasini samarali joriy etish istiqbollari.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Mazkur dissertasiyaning asosiy masalalari, korxona boshqaruvida kommunikatsiya, internet, axborotlar tizimi va uning bo'g'inlarini o'rganish, xujjatlarni yuritish jarayonini o'rganish, "Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi" unitar shuba korxonasining umumiy faoliyatini tahlil qilish, "Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi" unitar shuba korxonasining axborotdan foydalanishini o'rganish, "Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi" unitar shuba korxonasining zamonaviy dasturlar bilan ta'minlashni tahlil qilish, korxonada elektron axborot tizimini samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo'llarini o'rganish va korxonada elektron axborot kommunikatsiya infratuzilmasini samarali joriy etish istiqbollarini o'rganishdan iborat.

Magistr dissertasiyaning asosiy farazi, korxona infratuzilmasiga zamonaviy axborot dasturlar tizimi tatbiq qilinish natijasida, korxonada axborot yaxshilanishi, axborot xavfsizligi va mehnat unumdorligi o'sishidan iborat.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari, nutq va maqolalarida ilgari surilgan g'oya va fikrlar mavzuni yoritishda nazariy uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi. Usbu masalalar bilan horijlik olimlardan Kuznesova A.I, Komarov M.P, Ignat'ev V.A, Aleksencev A.I va Aleksandr Aleshin, mahalliy olimlardan Xodiev B.Yu, Aripov A.N, Xamdamov O'.R, G'ulomov S, Marahimov A.R, Rahmanqulov C.I, Oripov M., Haydarov A, va Raxmatullaev A.I. o'z ilmiy ishlarida ko'rib o'tgan.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. Mavzuning yoritishda qo'llanilgan uslublar, ya'ni: ilmiy izlanishlar olib borishda qabul qilingan statistik, iqtisodiy - matematik, semetrik va davriylik kabi uslublardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur magistrlik dissertasiyaning nazariy va amaliy ahamiyati, O'zbekistonda korxona boshqaruvini axborot bilan ta'minlash manbalari va ulardan foydalanish

samaradorligini oshirish yo'llarini shakllantirish, korxonada boshqaruv tizimini modernizatsiya qilishda, "Korxona infratuzilmasini boshqarish", "Mahalliy va hududiy infratuzilma" va "Bozor infratuzilma" fanlaridan ma'ruza va matnlar tayorlash.

Hozirgi kunda nafaqat korxona boshqaruvini balki davlat boshqaruvini axborotlarsiz tasavur qila bo'lmaydi. O'zbekiston voqeligi uchun ijobiy tajribalarini o'rganish va ijodiy qo'llash Respublikamizda yuqorida zikr etilgan jarayonlarni izchil amalga oshishiga imkon yaratadi. Jamiyatning ijtimoiy-madaniy sohasini rivojlantirishda axborot va kommunikatsiya infratuzilmasining rolini oshirishda ijobiy ta'sir qiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Mazkur magistrlik dissertasiyaning tadqiqot qilish natijasida olingan asosiy yangiliklar quyidagilardan iborat:

- Korxona boshqaruvida kommunikatsiya va internetning ahamiyati aniqlanadi;
- Korxona boshqaruvida axborotlar tizimi va uning bo'g'inlari o'rganiladi;
- Korxona boshqaruvida xujjatlarni yuritish jarayoni tahlil qilinadi.
- "Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi" unitar shuba korxonasining umumiy faoliyati o'rganiladi;
- "Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi" unitar shuba korxona boshqaruvida axborotdan foydalanishi o'rganiladi;
- "Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi" unitar shuba korxonasi boshqaruvini zamonaviy dasturlar bilan ta'minlash tizimi tahlil qilinadi;
- Korxonada elektron axborot tizimini samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari topiladi;
- Korxonada elektron axborot kommunikatsiya infratuzilmasini samarali joriy etish istiqbollari o'rganiladi.

Magistrlik dissertasiya tarkibining qisqacha tavsifi. Magistrlik dissertasiya kirish, 3 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar tarkibidan iborat.

I.Bob. Korxona boshqaruvini axborot bilan ta'minlash manbalari va axborot tizimining nazariy asoslari

1. Korxona boshqaruvida kommunikatsiya va internetning ahamiyati

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan boshlab ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanib, xalqaro integrasiga qo'shilmoqda. Jami timizning turli sohalarida rivojlanish ketayotganligi uchun axborotlar almashuvi masalasi tug'ildi.

Insoniyat ishlab chiqarish jarayonida tartibsiz mexanik operasialardan tartibli boshqaruv operasialari tomon jadal xarakatlanmoqda. Elektron ofislar har xil axborotlashtirish vositalari bilan ta'minlangan. Insonning ish joyi o'zgarmoqda.

Ma'lumotlarning elektron shakli xayotning barcha jabxalarida inson faoliyati xarakterini o'zgartirmoqda.

Axborot texnologisi va uning apparat dasturiy ta'minotining rivojlanishi, ofisda ish o'rinlarining evolusion va informasion to'yinishiga sharoit eratadi.


Korxona tomonidan yo'qotilgan axborot - bu natija va boshqaruvning yoqotilganidir. Shuning uchun axborot tizimlari qurilishida qo'yiladigan strategik maqsad, korxona erisha oladigan oqimlarining barchasini jamlashga sharoit yaratish, ofisda avtomatlashgan ish joyini integrasi qilishga kerak bo'lgan axborot oqimlari: nutq, tasvir, matn, ma'lumotlarni olishdir.

Kommunikatsiya - bu axborot almashishdir. Ana shu axborot negizida rahbar ma'lumotlar olib, samarali qarorlar qabul qiladi va ishchi xodimlarga etkazadi⁷.

Kommunikatsi jarayonida kuniga hamma qatnashadi, ammo uning samaradorligi hammada har - xil bo'ladi. Insonlar o'zaro muloq'otda bo'lar ekan, ularning vazifalarini hal etishga harakat qilishadi

Korxonada kommunikatsiya jarayoni 1- rasmda misol qilib ko'rsatilgan.

⁷ Xamdamov O'. R. - Aholini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan yaqindan tanishtirish va targ'ibot qilish uchun instruktor o'qituvchilarni tayyorlash va o'qitishga mo'ljallangan o'quv-uslubiy majmuasi. Toshkent 2012 yil - 19 bet.




1 - Rasm. Korxonada kommunikatsiya jarayoni.⁸

1-Rasmda korxonadagi kommunikatsion jarayon ko'rsatilgan. Bunda, mijoz so'rovi internet tarmog'i orqali serverga yo'naltiriladi, unda rahbar so'rovni ishchi uni islab chiqib yana rahbarga qaytaradi, rahbar esa serverga, server esa mijozga qaytaradi. Bu jarayon dasturlar orqali bajariladi va dasturlar ish uslubga qarab ishlatiladi.

Internet bu yagona standart asosida faoliyat ko'rsatuvchi jahon global kompyuter tarmog'idir. Uning nomi ikki xil talqin qilinadi, ya'ni "International Network" — xalqaro tarmoq va "Interconnected networks" "tarmoqlararo" degan ma'noni anglatadi. U mahalliy (lokal) kompyuter tarmoqlarni birlashtiruvchi axborot tizimi bo'lib, o'zining alohida axborot maydoniga ega bo'lgan virtual to'plamdan tashkil topadi. Internet tushunchasi 1994 yildan boshlab, Internetda Web texnologiyalari muvaffaqiyatli sinovlardan o'tib so'ng paydo bo'ldi. Zero, internet texnologiyalari esa 1968 yil AQSH universitetlari orqali ixtiro qilingan.

Internet tizimining hozirgi kundagi ko'rinishi 2 – rasmda ko'rsatilgan.

⁸ Xamdamov O'. R. - Aholini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan yaqindan tanishtirish va targ'ibot qilish uchun instruktor o'qituvchilarni tayyorlash va o'qitishga mo'ljallangan o'quv-uslubiy majmuasi. Toshkent 2012 yil - 20 bet.




2 - Rasm. Internet tizimi.⁹

2-Rasmda Internet tizimi ko'rsatilgan. Bunda, internet tarmogi "Web Server" orqali mijozlarni bir-biriga ulidi va unga ulangan barcha kompyuterlarning o'zaro ma'lumotlar almashish imkoniyatini yaratib beradi. Internet tarmog'ining har bir mijozi o'zining shaxsiy kompyuteri orqali boshqa shahar yoki mamlakatga axborot uzatishi mumkin. Bu esa axborot alamasish tiziminining tezligini ko'rsatadi.

Masalan, Vashingtondagi Kongress kutubxonasi katalogini ko'rib chiqish, N'yu-Yorkdagi Metropoliten muzeyining oxirgi ko'rgazmasiga qo'yilgan suratlar bilan tanishish, xalqaro anjumanlarda ishtirok etish, bank muomalalarini amalga oshirishi va hatto boshqa mamlakatlarda istiqomat qiluvchi Internet tarmog'i mijozlari bilan shaxmat o'ynash mumkin.

"Web Server" tizimi hozirgi kunda ko'rinishi 3 – rasmda ko'rsatilgan.

⁹ Xamdamov O'. R. - Aholini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan yaqindan tanishtirish va targ'ibot qilish uchun instruktor o'qituvchilarni tayyorlash va o'qitishga mo'ljallangan o'quv-uslubiy majmuasi. Toshkent 2012 yil - 14 bet.



3 - Rasm. “Web Server” tizimi.¹⁰

3 –rasmda “Web server” bir qancha kompyuterlar bir tarmoqqa birlashtirib. Ularning o’zaro aloqa almashishga ko’maklashadi. Web serverda (kompyuterda) bir qancha tashkilot yoki korxonalarning Web saytlari (uzellari) Web sahifalari joylashishi ham mumkin. Web server tushunchasini 2 xil ma'noda ishlatish mumkin:

1. Web server tarmoq mijozlariga Web sahifa va saytlardan foydalanish imkoni beruvchi dastur ma'nosini anglatadi;
2. Web server Web resurslari saqlanayotgan va uning dastur ta'minoti ishlab turgan kompyuter ma'nosini anglatadi.

Yer sharini qamrab olgan o’zaro bog’liq kompyuter tarmoqlari to’plami. Internet protokolidan foydalanuvchi kompyuterlar, elektron pochta, e’lonlar

¹⁰ Xamdamov O'. R. - Aholini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan yaqindan tanishtirish va targ'ibot qilish uchun instruktor o'qituvchilarni tayyorlash va o'qitishga mo'ljallangan o'quv-uslubiy majmuasi. Toshkent 2012 yil - 9 Bet..

doskalari, ma'lumotlar bazalari va mulohaza guruhlaridan, sotsial tarmoklaridan erkin foydalanishni ta'minlaydi.

- Internet tarmogining rivojlanishi ko'plab Axborot texnologiyalari soxasiga tegishli yangi ish urinlarini yaratilishiga sababchi bulishi.

- Ishlatuvchilar Internet tarmogi resurslarini ishlatgan xolda pul ishlashni urganishmokda.

- Freelance (uz xoxishiga kura ishlash) (dasturchilar, web-dizaynerlar, tarjimonlar i jurnalistlar);

- Shaxsiy internet saytida pul ishlash (xar xil turdagi bannerlar, axborotlarni o'qish);

- Forex (jaxon valyuta bozori birjasi);

- Auktsionlar;

- Biznesning elektron kurinishida olib borishning paydo bo'lishi;

- Biznesni boshqarish (e-mail, web site, portal);

- Virtual axborot makoni (ishlatuvchi joylashtirgan ma'lumot umumiy ma'lumotlarning bir qismi hisoblanadi va kerakli ishlatuvchi shu ma'lumotlarni uz manfaatida ishlatishi mumkinligi);

- e-Bussines 4 ta asosiy pogonalari Internet- infrastruktura, Internet-xizmatlar, axborot brokeri, elektron kommertsiya;

- Yangi ma'lumotlar operativ usulda yetkazib berilishi.

Elektron pochta tushunchasi. Elektron pochta (e-mail – electronic mail) oddiy pochta vazifasini bajaradi. U bir manzildan ikkinchisiga ma'lumotlarni jo'natilishini ta'minlaydi. Uning eng asosiy afzalligi vaqtga bog'liq emasligida.

Elektron xatlar jo'natilgan zahotiyoq manzilga boradi va egasi olgunga qadar uning pochta qutisida saqlanadi. Bundan tashqari matnli xat, grafikli, tovushli va dastur fayllarini o'z ichiga olishi mumkin.

Elektron xatlar bir vaqtning o'zida bir necha adreslar bo'yicha jo'natilishi mumkin. Internet foydalanuvchisi elektron pochta orqali tarmoqning turli xizmat-

laridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi, chunki internetning asosiy xizmat dasturlari bilan interfeysga ega. Bunday yondoshuvning mohiyati shundaki, xost-kompyuterga talab elektron xat ko'rinishida jo'natiladi. Xat matni zarur funksiyalarga kirishni ta'minlovchi standart yozuvlar to'plamidan tuziladi. Bunday axborotni kompyuter komanda sifatida qabul qiladi va bajaradi.

Elektron pochta bilan ishlash uchun qator bir qancha dasturlar yaratilgan, ularni mail umumlashma nomi bilan birlashtirish mumkin. MS DOSda foydalanuvchilar uchun bml dastursi qollanilsa, Unix-tizimlar uchun elm dastursi kengroq tarqalgan. eng qulay va foydalanishga oson dastur – Microsoft Windows uchun Eudoradan foydalaniladi. Windows XP operasion tizimida lektron pochta bilan ishlashni Microsoft Outlook Express ilovasi ta'minlaydi. Bu dasturlar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Matnni yaratadi;
- Xat-xabarlarni (korrespondensi larni) oqish va saqlash;
- Xat-xabarlarni ochirish;
- Adresni kiritish;
- Xat-xabarlarni qabul qilish va jonatish;
- Turli ma'lumotlarni, jadvallarni, rasmlarni va boshqa fayllarni import (qabul qilish va kerakli formatga o'zgartirish), xatga ilova qilish;
- Xatlarni mavzusiga qarab ajratish.

Internetda axborotlarni topishning qulay usullari mavjud. Bu vazifani qidiruv tizimlari bajaradi. Bu qidiruv tizimlari ma'lumotlar katalogiga va maxsus qidirish tizimiga ega. Ular yordamida ma'lumotni tezda topish mumkin.

Quyida ommabop qidiruv tizimlar ro'yxatini keltiramiz:

1. "YAHOO" internet manzili <http://www.yahoo.com>. Taniqli va foydalanishga qulay qidiruv tizimi. Shuning uchun uning foydalanuvchilari ko'pchilikni tashkil etadi.

2. “INFOSEEK SELECT SITES” internet manzili <http://www.infoseek.com>. InfoSeek qidiruv tizimi Yahoo kabi ish yuritadi va Web sahifalarni serverga kiritilishini ham ta’minlaydi.

3. “HotBot” internet manzili <http://www.hotbot.com>. Ixtiyoriy mazmundagi ma’lumotlar omboriga ega. Turli xildagi servis xizmatlar ko’rsatadi. Elektron adres, tele-konferentsiya va Web - sahifalarni qidiradi.

4. “EXCITE” internet manzili <http://www.excite.com>. Eng ommaviy server. Juda boy, turli xil mavzudagi tanlangan ilovalarni o’z ichiga oladi.

5. “WebCrawler” internet manzili <http://www.webcrawler.com>. 1995 yil boshidan ishlaydi. Avvalgi nomi GNN SELECT. 5 millionga yaqin mijozlari bor.

6. “OpenText” internet manzili <http://www.opentext.com>. WWW ma’lumotlarida qidiruv olib boradi.

7. “Lycos” internet manzili <http://www.lycos.com>. 1994 yilning oxiridan ishlayotgan qidiruv tizimi. Eng keksa ommaviy qidiruv sistemalardan biri bo’lib, keng foydalanuvchilar doirasiga ega.

O‘zbekiston qidiruv tizimi:

1. “Assalom InterNet” internet manzili <http://www.assalom.uz>. O‘zbekistondagi birinchi qidiruv tizimi. Resurslarini ko‘paytirish imkoniyatlari mavjud.

2. “Welcome to Uzbekistan” <http://www.gov.uz>. O‘zbekiston Respublikasi hukumati sahifasi. Rasmiy axborot, Oliy majlis qarorlari haqida ma’lumot beradi.

3. “Uzbekistan Reference” <http://www.book.uz>. O‘zbekiston Respublikasi haqidagi axborotni o‘z ichiga oladi.

4. <http://www.freenet.uz> respublika internet resurslari haqidagi ma’lumotlar keltiriladi.

5. <http://www.esizam.uz> Markaziy Osiyo, Kavkaz va Rossiya axborotlashgan portali. Hudud internet resurslari haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Mamlakatlarga oid entsiklopedik ma’lumotlar keltirilgan.

Qidiruv tizimlaridan foydalanish reytingi 1 – jadvalda ko’rsatilgan.

1-Jadval.**Dunyoda eng ommabop qidiruv tizimlaridan foydalanish reytingi. ¹¹**

(mln kishi)

№	Qidiruv tizim nomi	Foydalanishi, soni				2012yil – 2009 yilga nisbatan o'sish surati/ %da
		2009 yilda	2010 yilda	2011 yilda	2012 yilda	
1.	http://www.yahoo.com	350	348	365	367	4.8
2.	http://www.infoseek.com	226	294	265	246	8.8
3.	http://www.hotbot.com	112	135	127	126	12.5
4.	http://www.excite.com	78	72	86	89	14.1
5.	http://www.webcrawler.com	4,5	6	4,95	5	11.1
6.	http://www.opentext.com	3	2,5	3,25	4	33.3
7.	http://www.lycos.com	1,9	2	2,20	2,4	26.3

1-jadvalda ommabop qidiruv tizimlaridan foydalanish reytingi ko'rsatkichlari keltirilgan. Jadvalda Yahoo qidiruv tizimi foydalanuvchilari soni salmoqli ekanligi yaqqol ko'rinadi. Jadvalda ko'rsatilgan qidiruv tizimlar AQSH korxonalariga tegishli.

¹¹ <http://www.economyworld.com> Axborot Texnologiyalari Assosatsiyasi web-saytidan olingan.

Ma'lumki internet tarmoqlararo axborotlar almashuvini ta'minlovchi magistraldir. Uning yordamida dunyo bilimlar manbaiga kirish, qisqa vaqt ichida ko'plab ma'lu-motlarni yig'ish, ishlab chiqarishni va uning texnik vositalarini masofadan turib boshqarish mumkin. Shu bilan bir qatorda internetning ushbu imkoniyatlaridan foydalanib tarmoqdagi begona kompyuterlarni boshqarish, ularning ma'lumotlar bazasiga kirish, nusxa ko'chirish, g'arazli maqsadda turli xil viruslar tarqatish kabi noqonuniy ishlarni amalga oshirish mumkin. Internetda mavjud bo'lgan ushbu xavf, axborotlashgan xavfsizlik muammolari bevosita tarmoqning xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Biz oldingi boblarda qayd etib o'tganimizdek ixtiyoriy tarmoq xizmatini o'zaro kelishilgan qoida ("protokol") asosida ishlovchi juftlik "server" va "mijoz" dastur ta'minoti bajaradi. Ushbu protokollar miqyosida ham "ser-ver", ham "mijoz" dasturlari ruxsat etilgan amallarni (operatsiyalarni) bajarish vositalariga ega.

Masalan, internet protokolidagi formatlash komandalari, Web sahifalarda joylashtirilgan tovush, videoanimatsiyalar va har xil aktiv ob'ektlar ko'rinishidagi mikrodasturlar. Xuddi shunday ruxsat etilgan operatsiyalar, aktiv ob'ektlardan foydalanib internetda ba'zi bir noqonuniy harakatlarni amalga oshirish, tarmoqdagi kompyuterlarga va ma'lumotlar bazasiga kirish, hamda ularga tahdid solish mumkin bo'ladi.

Bu xavf va tahdid nimalardan iborat:

1. Tarmoqdagi kompyuterlarga ruxsatsiz kirish va uni masofadan turib boshqarish, ularga sizning manfaatingizga zid bo'lgan dasturlarni joylashtirish mumkin.
2. Web sahifalarda joylashtirilgan "aktiv ob'ekt"lar agressiv dastur kodlari bo'lib, siz uchun xavfli "vi-rus" yoki josus dastur vazifasini o'tashi mumkin.
3. Internetda uzatilayotgan ma'lumotlar yo'l-yo'lakay aloqa kanallari yoki tarmoq tugunlarida tutib olinishi, ulardan nusxa ko'chirilishi, almashtirilishi mumkin.

4. Davlat muassasi, korxona faoliyati, moliyaviy ahvoli va uning xodimlari haqidagi ma'lumotlarni raz-vedka qilishi, o'g'irlashi va shu orqali sizning shaxsiy hayotingizga, korxona rivojiga tahdid solishi mumkin.

5. Internetda e'lon qilinayotgan har qanday ma'lumot ham jamiyat uchun foydali bo'lmasligi mumkin. Ya'ni, internet orqali bizning ma'naviyatimizga, madaniyatimizga va e'tiqodimizga zid bo'lgan axborotlarni kirib kelish ehtimoli ham mavjud.

Internet foydalanuvchisi ushbu xavflarni oldini olish uchun quyidagi texnik yechim va tashkiliy ishlarni amalga oshirishi zarur:

1. Shaxsiy kompyuterga va mahalliy kompyuter tarmog'iga hamda unda mavjud bo'lgan axborotlashgan resurslarga tashqaridan internet orqali kirishni cheklovchi va ushbu jarayonni nazorat qilish imkonini beruvchi texnik va dasturviy usullardan foydalanish;

2. Tarmoqdagi axborotlashgan muloqot ishtirokchilari va ular uzatayotgan ma'lumotlarni asl nusxasiga mosligini tekshirish;

3. Ma'lumotlarni uzatish va qabul qilishda kriptogra-fiya usullaridan foydalanish;

4. Viruslarga qarshi nazoratchi va davolovchi dasturlardan foydalanish.

Shaxsiy kompyuter va mahalliy kompyuter tarmog'iga begona shaxslarni qo'ymaslik va ularda mavjud bo'lgan ma'lumotlardan nusxa olish imkoniyatlarini cheklovchi tashkiliy ishlarni amalga oshirish.

Bundan tashqari axborotlashgan xavfsizlikni ta'minlash borasida internet foydalanuvchilari orasida o'rnatilmagan tartib-qoidalar mavjud. Ulardan ba'zi-birlarini keltiramiz:

1. Hech qachon hech kimga internetdagi o'z nomingiz va parolingizni aytman;

2. Hech qachon hech kimga o'zingiz va oila a'zolaringiz haqidagi shaxsiy hamda ishxonangizga oid ma'lumotlarni internet orqali yubormang;

3. Elektron adresingizdan (E-mail) maqsadli foydalaning, internet orqali dasturlar almashmang va hokazolar.

2. Korxona boshqaruvida axborotlar tizimi va uning bo'g'inlari

Axborot bu ma'lumot va xabarlar to'plami bo'lib, mazmunan yangilik unsurlariga ega bo'ladi va boshqaruv vazifalarini hal etish uchun o'ta zarurdir. Ishonchli va zarur axborotlarsiz boshqarishni amalga oshirib bo'lmaydi. Axborotlar boshqaruv negizi hisoblanadi.

Boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar axborot vositasida quyidagicha amalga oshiriladi.

Boshqaruvchi organ boshqariluvchi ob'ektning holati hamda boshqariluvchi ob'ektga bog'liq bo'lgan tashqi muhit holati haqida axborotlar olib turadi. Bu axborot boshqaruvchi organ tomonidan qabul qilinadi va shu axborot asosida u boshqaruvchi axborot (qaror, buyruq)ni ishlab chiqadi. Shundan keyin axborot boshqariluvchi ob'ektga ta'sir o'tkazadigan boshqaruvchi tizimning ijroiya organiga yuboriladi va bajarilishi nazoratga olinadi.

Shunday qilib, boshqaruv tizimida axborotni uzatish, olish, qayta ishlash va berish jarayoni amalga oshiriladi. Ishlab chiqarishning borishi to'g'risidagi ichki axborot boshqaruvchi tizimga muttasil kelib tushadi. Bu:

1. Ish o'rinlariga xom ashyoning kelib tushishi;
2. Stanok, uskunalarning ishlashi;
3. Ishchilarning ishlab chiqarish normalarini bajarishi;
4. Tayyorlangan buyumlar miqdori va ularning sifati;
5. Mahsulotlarni sotishi haqidagi axborotlar.

Tashqi axborotlar, ya'ni:

1. Yuqori tashkilotlardan olinadigan farmoyish, qaror va topshiriqlar;
2. Mahsulot iste'molchilari talablari;
3. Boshqa korxonalarning ilg'or tajribalari;
4. Raqobatdoshlarning xatti-harakatlari;
5. Bozorlardagi holat, ulardagi muvozanat;
6. Inflyatsiya va ishsizlik darajasi;

7. Byudjetga to'lovlar va hokazolarga oid ma'lumotlar shu turkumdagi axborotlar sirasiga kiradi. Bular tashqi muammolardan kelib chiquvchi axborotlar hisoblanadi.

Agar korxona ichida axborot oqimlarining kelishi va tashqi dunyo bilan aloqalar buzilsa, korxonaning yashashi xavf ostida qoladi.

Boshqarishda foydalaniladigan va bajarilishi uchun uzatiladigan axborotlarga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Ishonchlilik;
2. Tushunarli, bir ma'nolilik;
3. Tezkorlik;
4. To'liqlik;
5. Tejamlilik.

Hozirgi davrda rahbar boshqaruv ishlarida tashabbus va omilkorlik ko'rsatishi, tezkorlik bilan ish olib borishi, vaziyat o'zgarishni o'z vaqtida payqab olish, resurslar bilan manyovr qila olishi, har bir konkret sharoitda maqbul qaror qabul qilishi zarur.

Buning uchun rahbar ishonchli va mazmunli axborot olib turishi lozim. Ortiqcha, befoyda axborot rahbar ishini qiyinlashtiradi, ortiqcha mehnat va vaqt sarflashga olib keladi.

Axborot tushunarli bo'lishi kerak, chalkash, bir-biri bilan taqqoslab bo'lmaydigan ko'rsatkichlar to'g'ri rahbarlik qilishga va o'z vaqtida qaror qabul qilishga putur yetkazadi.

Axborotning o'z vaqtida kelishi va o'z vaqtida bajaruvchilarga yuborilishi, ya'ni tezkorligi ham juda muhimdir. U boshqaruv jarayonining, binobarin, ishlab chiqarishning uzluksiz borishiga yordam beradi.

Shuningdek, dastlabki axborotni boshqarish turli maqsadlar uchun oson o'zgarish, undan boshqaruvning barcha bo'g'inlarida foydalanish mumkinligi, axborotning uzil-kesil ishlanishi, undan qo'shimcha ishlov bermasdan foydalanish ham katta ahamiyatga ega.

Zarur paytda kerakli natija beradigan axborotlar qimmatli hisoblanadi. Kech berilgan axborotlar o'z qimmatini yo'qotadi.

Ishlab chiqarish vaziyatiga to'g'ri baho berish va aniq qaror qabul qilish uchun boshqaruv organi axborot bilan to'liq ta'min etilishi, axborot hajmi maqsadga muvofiq bo'lishi kerak.

Axborot yetishmasligi yoki haddan tashqari ko'payib ketishi tezkor va to'g'ri boshqarishga halal beradi. Va, nihoyat, boshqarish apparati xodimlari qanchalik yuqori malakali bo'lsalar, axborot qimmat ham shunchalik yuqori va tartibga solingan bo'ladi. Boshqarish organlari ma'lumotlar qabul qiluvchi texnika vositalari bilan qanchalik mukammal ta'minlangan bo'lsa, rahbarlarga ortiqcha, befoyda ma'lumotlar shunchalik kam kelib tushadi. Bu esa o'z navbatida axborot oqimidagi tejamkorlikni ta'minlaydi.

Boshqarish tizimining muvaffaqiyatli ishlashining zarur sharti faqat to'g'ri aloqagina emas, balki teskari aloqaning ham mavjud bo'lishidir. Teskari aloqa har qanday darajadagi tizimlar harakatini rostlab turish uchun universal mexanizm hisoblanadi.

Boshqariluvchi tizimdan boshqaruvchi tizimga (bo'ysunuvchidan boshliqqa) kelib tushadigan axborotni, ya'ni berilgan farmoyish va buyruqning natijalari to'g'risidagi axborotni teskari aloqa deb tushunish qabul qilingan.

Boshqaruv tizimi unsurlari ichida murakkab, ko'p tomonlama va xilma-xil aloqalar mavjudligi sharoitida teskari aloqaning ahamiyati ayniqsa ortadi. Boshqaruvchi tizim farmoyish yoki buyruq (topshiriq) bergandan keyin shu farmoyish yoki buyruq qanday bajarilayotganligi to'g'risida teskari aloqa yo'li bo'yicha o'z vaqtida axborot bilan ta'minlanib turilmasa, boshqarish jarayoni buziladi va boshqaruv tizimi butunlay izdan chiqadi.

Ishlab chiqarishni va davlat boshqaruvining barcha darajalarida mustahkam teskari aloqa mavjudligi xarakterlidir. Oddiy bir misol. Mamlakatimizning iqtisodiy va sotsial rivojlanishi bo'yicha ishlab chiqiladigan barcha qonunlar, albatta umumxalq muhokamasiga qo'yiladi, ularga mehnatkashlarning mulohaza

va istaklari hisobga olinib, qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritiladi.

Teskari aloqa yordamida axborotni jo'natuvchi bilan uni qabul qiluvchi o'rtasida aloqa o'rnatiladi. Bu jarayonda axborotni qabul qiluvchi axborot bilan o'zaro almashuv jarayonining barcha bosqichlarini takrorlaydi, natijada axborotai yuboruvchi endi uni qabul qiluvchiga aylanadi, ya'ni har ikkala tomon o'z vazifalarini o'zaro almashgandek bo'ladi.

Teskari aloqa - bu eshitganga, o'qiganga yoki ko'rganga nisbatan aks ta'sir yoki ta'sirlanish tayanchi. Bunda mazkur axborotni olgan shaxs shu axborotga bo'lgan munosabatini, tushunganligi yoki to'liq tushunmaganligini, qo'llab-quvvatlashi yoki inkor etishini shu axborotni yuborgan shaxsga bildiradi. Bunday aloqa har ikkala tomonning bir-birini qanchalik tushunganini bilish uchun zarur.

Rahbar berilgan topshiriq yoki aytilgan so'z har doim bo'ysunuvchilar tomonidan birdek qabul qilinadi, deb o'ylamasligi kerak.


Bunday xato fikrga boruvchi rahbar o'zini real voqeliqdan uzoqlashtiradi. Teskari aloqani samarali o'rnatmagan rahbarning boshqaruv faoliyati zaiflashadi va inqirozga yuz tutadi. Shov-shuv axborot almashuv jarayonida salbiy ta'sir ko'rsatuvchi unsurlardan hisoblanadi.

Axborotlarni uzatish nazariyasi tili bilan aytganda shov-shuv — bu g'oyani buzib talqin qilishda namoyon bo'ladi. Aytilgan so'zdan tortab, to uni qabul qilingungacha bo'lgan masofadaga turli to'siqdar, shov-shuvlar axborotni kodlashtirish va dekodlashtirish. Shuningdek, rahbar bilan bo'ysunuvchi o'rtasidagi aloqa jarayoniga katta ta'sir o'tkazishi mumkin.

Axborotlar tizimi - bu murakkab tizim bo'lib, o'z ichiga turli hujjatlarni, axborot oqimi, aloqa kanallari, texnik vositalar va avtomatik boshqaruv tizimlarini oladi. Butun axborotlar tizimi aniq va doimiy ishlashi lozim.

Har bir rahbarning uslubi ko'p jihatdan qaror qabul qilish uchun zarur va yetarli axborotni olish va undan foydalanishda uning shaxsiy ishlash uslubi bilan belgilanadi.

Axborot tizimining tushunchasi 4 – rasmda ko'rsatilgan.



4-Rasm. Axborot tizimining tushunchasi. ¹²

4-Rasmda axborot tizimi ikki turga bo'linganligi ko'rsatilgan, yani:

1. Oddiy tizim. Bu turdagi axborot tizimi quyi boshqaruv bosqichiga to'g'ri keladi. Ish joyidan ustaga berilgan axborot bunga misol bo'la oladi. Bunday axborotga deyarli ishlov berilmaydi;
2. Murakkab tizim. Bu yerda dastlabki axborot yuzaga keladi. Ishlov berishda hisoblash texnikasidan keng foydalaniladi.

Axborotlarni to'la o'zlashtirish davri. Bunda axborot oddiy mexanizimlardan foydalanilgan holda butunlay qayta ishlanadi.

Aralash axborot tizimi. Bunda axborotni mexanizatsiyalashgan va avtomatlashgan qurilmalari yordamida o'zgartirishlarga erishiladi. Bu tizim avtomatlashgan nazoratni ta'minlaydi, ba'zida korxonaning ishlab chiqarish faoliyati ustidan oddiy boshqaruv jarayonini amalga oshiradi.

¹² G'ulomov S. "Axborot tizimlari va texnologiyalari".-Toshkent "Sharq", 2010. 36 bet

Axborot-ma'lumot tizimi. Bunda ko'z bilan bajariladigan nazorat uchun ba'zi bir ma'lumotlarni berish bilan cheklanadi.

Kuzatuv axborot tizimi. Bu tizim avtomatlashgan nazorat va boshqaruvni ta'minlaydi. Keyingi ikkala tizim asosan texnologik jarayonlar to'g'risidagi axborotlarni qayta ishlash uchun qo'llaniladi.

Ishlab chiqarishni boshqarish - bu ijodiy jarayon, o'ziga xos bir san'at. U rahbarning xilma-xil ish usullarida namoyon bo'ladi. Bu usullar esa rahbarga ushbu sohada oz omilkor kishilarning fikrini turli kanallar orqali aniqlash va bu ijobiy fikrlardan boshqarish jarayonida foydalanish imkoniyatini beradi. U o'z fikrlarini har bir kishining ongiga yetkazish uchun ham ma'lum hislatlarga ega bo'lish kerak.

Rahbar suhbatdoshini shunday tinglay bilishi lozimki, suhbat natijasida ish haqida eng ko'p darajada foydali axborot olishi kerak. Bunga esa boshqarishning, ayniqsa o'z qo'li ostidagilarning fikrlariga, so'zlariga, taklif va tanqidlariga e'tibor bilan munosabatda bo'lgandagina erishish mumkin. Bo'ysunuvchi kishi ma'lum ishini bevosita bajaradi va bu ishni boshqalardan ko'ra yaxshiroq biladi.

Shuning uchun rahbar o'z qo'l ostidagilar bilan suhbat qilganida o'zi uchun ayniqsa qimmatli bo'lgan axborotni olishni mo'ljallashi kerak. Buning uchun ochiq gaplashish shartini yaratishi lozim. Begonalar bo'lmasligi lozim, telefon qo'ng'iroqlarini cheklash va hokazolar talab qilinadi.

Axborot hajmining bu qadar ko'payib ketishi hamda ma'lumotlar oqimining tezlashib borishining asosiy sabablaridan biri axborot texnika, texnologiyalarning rivojlanishi zamonaviy eng yangi texnologiyalarini qo'llash, ikkilamchi xom-ashyolardan oqilona foydalanish, energetik resurslarni tejamkorlik bilan ishlatish, inson mehnatini yengillashtirish hisobiga oshirish bosqichiga kirganligidir. Bu esa, o'z navbatida, yuqori darajada axborotlashgan jamiyat bo'lishini talab etadi.

Jamiyatning axborotlashuv atamasi - D.Benk va Ye.Masudolar tomonidan ilk bor qo'llanilgan bo'lib, bugungi kunlarda mavjud bo'lgan ziddiyatlardan xoli

bo'lgan, kompyuterlar, informatika, elektronika bilan uyg'unlashib ketgan jamiyat ma'nosini anglatadi. Kengroq ma'noda olsak, axborotlashgan jamiyatda – jamiyatning axborotlashuvi ijtimoiy taraqqiyotning asosiy qonunlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu inson faoliyatining barcha sohalariga intellektual mehnat quroli sifatida axborotlarni tezkorlik bilan yig'ish, qayta ishlash, jarayon, voqea va hodisalarni modellashtirish, ularni tahlil qilish imkonini beruvchi kompyuterlashtirilgan tizimlar va boshqa axborot texnologiyalari kirib kelishini anglatadi.

Insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida moddiy muhitning ob'ektlari asosiy mehnat predmetlari bo'lib kelgan. Davlatning qudrati esa, eng avvalo oltin zaxirasi, mehnat va tabiiy resurslari, xududi, joylashgan o'rni, aholi soni va shu kabilar bilan aniqlanadi. Endi esa bu mezon o'z mohiyatini o'zgartirib bormoqda.

Buning sababini quyidagicha tushuntirish mumkin:

Birinchidan inson tomonidan to'planayotgan bilimlar hajmi nihoyatda yuqori sur'atlar bilan ortib bormoqda. Masalan, 18-asrlarda bu hajm har 50 yilda ikki marta oshgan bo'lsa, 1950 yilga kelib har 10 yilda, 1970 yilda har 5 yilda, hozirga kelib esa har 2 yilda ikki martaga oshib bormoqda (eslatib o'tamiz, bu ham muvaqqat).

Ikkinchidan ushbu bilimlar manbasidan foydalanish samaradorligining o'sishi, hamda inson faoliyati davomida qayta ishlanadigan axborot hajmining ortib borishi mehnat resurslarining moddiy ishlab chiqarishdan axborot muhitga qayta taqsimlanishiga olib kelmoqda. Buni ayniqsa rivojlangan davlatlar misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Masalan, 1880 yilda AQShdagi axborot muhitda ishlovchilar soni umumiy ishlovchilarning 5 % ini, 1900 yilda 10 % ni, 1946 yilda 30 % ni, 1980 yilda 45 % ni, 1990 yilda esa 51 % ni tashkil etgan. Hozirda bu ko'rsatkich 60 % ni tashkil etmoqda. Shunday qilib, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar bilan bir qatorda yangi - axborot resurs tushunchasi ham sekin-asta yetakchi o'rinlarni egallay boshlaydi.

3. Korxona boshqaruvida xujjatlarni yuritish jarayonining ahamiyati

Hujjat - bu boshqarish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan voqealar, hodisalar, jarayonlar, faktlar to'g'risidagi axborotlarni maxsus materiallarda turli usullar bilan mustahkamlash vositasi. Boshqacha qilib aytganda, hujjat - bu narsaning nimaligini, miqdori, sifati va shu kabilarni ko'rsatuvchi rasmiylashtirilgan ish qog'ozi yoki kimning kimligini, mashg'ulotini, biror tashkilotga a'zoligini tasdiqlovchi ish qog'ozi (pasport, guvohnoma, reyting daftarchasi va hokozolar).¹³

Hujjatlashtirish deganda, biror kimsa yoki narsa haqidagi fikrni yozib, hujjat holiga keltirish, rasmiylashtirish tushuniladi.

Ish yuritish - bu korxonalarining o'z funktsiya va vazifalarini bajarish davomida hujjatlar ustida olib boradigan ish usullari va jarayonlari majmuasi. Bu jarayon hujjatlashtirish, ular ustida ishlash usullarini o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarishni boshqarishda foydalaniladigan axborotlarning eng muhim shakli - bu yozma axborot, ya'ni hujjat. Hujjatli axborot ishlab chiqarishni boshqarishning barcha jarayonlariga singib ketadi. Hujjatlarsiz boshqarishning birorta ham funktsiyasi muvaffaqiyatli amalga oshmaydi. Barcha boshqarish xodimlari u yoki bu tarzda hujjatli axborotni qayta ishlashda band bo'ladilar. Mutaxassislarining anchagina qismi (biznes rejani tuzuvchilar, iqtisodchilar, buxgalterlar, statistlar, konstruktor-injenerlar, kotibalar va hokozolar) uchun esa bu ish ular mehnatining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Hujjatlashtirish va ish yuritishning ahamiyati ikkita omil bilan belgilanadi. Birinchidan, boshqaruv mehnatining umumiy hajmida ish yuritish operatsiyalarining salmog'i katta bo'lib, 30-60 foizgacha yetadi. Yirik va o'rta korxonalarni boshqarish jarayonida minglab xilma-xil hujjatlardan foydalaniladi.

Ishlab chiqarishga oid operatsiyalarning aksariyati hujjatlashtirish

¹³ Кузнецова А.И. Инфраструктура: Вопросы теории, методологии и прикладные аспекты современного инфраструктурного обустройства. Геоэкономический подход. М.: Кои Книга, 2010. – 236 стр.

yordamida boshlanadi, amalga oshiriladi, nazorat qilinadi, tartibga solinadi va nihoyasiga yetkaziladi.

Ikkinchidan, ish yuritishning ahamiyati korxonaning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlariga, tezkorlikka, boshqaruv xodimining mehnatiga, madaniyatiga, tejamkorligiga va hokazolarga uning bevosita ta'sir o'tkazishi bilan belgilanadi. Ish yuritish ijroni ta'sirchan nazorat qilishda muhim rol o'ynaydi. Hujjatlar yuridik ahamiyatga ham ega. Hujjatlashtirish va ish yuritishni yaxshi yo'lga qo'ymay turib, korxonani rejali boshqarib bo'lmaydi.

Elektron hujjat. Elektron hujjat O'zbekiston Respublikasining "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi 2004 yil 29 apreldagi 611-II son Qaroriga binoan quyidagicha ta'riflanadi.

Elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish (tanib olish) imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga (ma'lumotlarga) ega bo'lgan axborot elektron hujjatdir.

Elektron hujjat texnika vositalaridan va axborot tizimlari xizmatlaridan hamda axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda yaratiladi, ishlov beriladi va saqlanadi.

Elektron hujjat elektron hujjat aylanishi ishtirokchilarining mazkur hujjatni idrok etish imkoniyatini inobatga olgan holda yaratilishi kerak.

An'anaviy va elektron hujjat almashish. Odatda hujjatlarni an'anaviy tarzda almashish jarayonida pochta xizmati muhim rol o'ynaydi. Chunki pochta xizmatining asosiy vazifasi jo'natmalarni o'z manzillariga yetkazib berishdan iboratdir. Ushbu holatda hujjatlar konvertga solinadi va aloqa bo'limiga topshiriladi. Shundan so'ng pochta xizmati xodimlari tomonidan hujjat kerakli manzilga jo'natiladi va yetkaziladi. Elektron hujjatlarni almashish tizimi esa an'anaviy hujjat almashish tizimidan biroz farq qilinadi.

Korxonalarda xilma-xil va turli-tuman hujjatlardan foydalaniladi. Bu esa 5 – rasmda ko'rsatilgan.

№	Guruhlash belgilari	Hujjat turlari	
		Umumiy	Maxsus
1.	Ob'ektiga qarab	Xizmatga oid hujjatlar: • Lavozimli shaxs imzolaydi. • Ob'ekt-korxona	Shaxsiy hujjatlar: • ariza, xat, tarjimai hol. • ob'ekt – xodim.
2	Foydalanish joyiga qarab	Ichki hujjatlar: • buyruqlar • aktlar • qo'llanmalar • nizomlar • hisob hujjatlari va h.k.	Tashqi hujjatlar: • xatlar • iltimosnomalar • javoblar • reklamatsiyalar.
3	Rekvizitlar soniga qarab	Oddiy hujjatlar: • ma'lumotnoma • ilova xatlari	Murakkab hujjatlar: • buyruqlar • rejalar • hisobotlar
4	Yuridik mavqesiga qarab	Standart bo'lmagan hujjatlar: • xatlar • qarorlar • aktlar • buyruqlar	Standart hujjatlar: • schyotlar • to'lov talabnomalari • nakladnoylar.
5.	Ijro etish muddatiga qarab	Shoshilinch hujjatlar: • telegrammalar • telefonogrammalar • faks va h.k.	Shoshilinch bo'lmagan hujjatlar: Bu hujjatlarning ijro etish muddati belgilanmaydi.
6.	Aslligiga qarab	Asl nusxadan ko'chirma hujjatlar: Asl hujjatlarning ko'paytirilgan hamda lavozimli shaxslar (kotiba, ish yurituvchi) tomonidan imzolangan nusxalari.	Asl nusxadagi (original) hujjat: Dastlabki, tegishli tarzda rasmiylashtirilgan va imzolangan hujjat. Arxivda saqlanadigan hujjat tariqasida dalolatlarda saqdanadi.
7.	Boshqaruv funktsiyasiga qarab	Umumma'muriy hujjatlar: 1. Xizmat-axborot hujjatlari: • xatlar • telegrammalar • ma'lumotlar • aktlar 2. Farmoyish hujjatlari: • buyruqlar • qo'llanmalar • qarorlar • tsirkulyarlar 3. Shaxsiy tarkibga oid hujjatlar: • xodimlar hisobi • guvohnomalar • tavsiyanomalar • xizmat safari qog'ozlari	Maxsus hujjatlar. Bu hujjatlarda funktsional xizmatlar faoliyati aks ettiriladi. Jumladan: • fan-texnika • texnologiya • iqtisodiyot • hisob-kitob • moliyaga oid • yuridik • reja • statistikaga oid hujjatlar.
8.	Konfiditsialligiga qarab	Oshkor hujjatlar, ya'ni hamma o'qiydigan va bosib chiqarishga ruxsat etilgan hujjatlar.	Yopiq hujjatlar, (maxfiy, mutlaqo maxfiy). Bularni ruxsatnomasi bo'lgan kishilargina o'qiy oladilar.
9.	Bajarilishiga qarab	Qo'lda yozilgan hujjatlar, ya'ni qo'lda siyoh yoki qalamda yozilgan hujjatlar.	Bosma qilingan, ya'ni mashinka yoki kompyuterda terilgan hujjatlar.

5 – Rasm. Hujjatlarning turlari¹⁴.

¹⁴ Raxmatullaev A.I. «Menejment va marketing asoslari» fanidan ma'ruza matnlari. – Q.: QMII, 2010 y. 31 bet.

5-Rasmda hujjatlarning turlari ko'rsatilgan. Demak, hujjatlar ikki guruhga ajratilar ekan, Bular:

Birinchi guruhga korxonalarning farmoyish berish va ijro etish jarayonida tuziladigan hujjatlari kiradi. Bular tashkiliy farmoyishli hujjatlashtirish bo'lib, unga tashkiliy hujjatlar (nizom, qoida, qo'llanma), farmoyishlar (qaror, buyruq, yechimlar), ma'lumot - axborotlar (xat, akt, hisobot va hokazo) kiradi.

Ikkinchi guruhdagi hujjatlar boshqarishning har bir maxsus funktsiyasiga xos hujjatlar (moliya, buxgalteriya hujjatlari va hokazo), , shuningdek, transport, aloqa, statistika, yurisprudentsiya hujjatlari va hokazodan iborat bo'ladi.

Imzo va uning ahamiyati. Imzo – hujjatning haqiqiylikini va yuborgan jismoniy shaxsga tegishli ekanligini tasdiqlaydigan insonning fiziologik xususiyati. Imzo orqali insonning shaxsi hamda u yozgan hujjatning haqiqiylikni aniqlanadi.

Muhr va uning ahamiyati. Muhr – hujjatning haqiqiylikini va biror bir yuridik shaxsga tegishli ekanligini tasdiqlovchi isbotdir. Muhrlar o'zining alohida shakliga ega bo'lib, asosan hujjatlarning va undagi imzolarning aslligini tasdiqlaydi.

Elektron raqamli imzo. Elektron raqamli imzo O'zbekiston Respublikasining "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi 2003 yil 11 dekabrda 562-II son Qaroriga binoan quyidagicha ta'riflanadi.

Elektron raqamli imzo - elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo;

Elektron raqamli imzo - xabar yoki hujjat yaxlitligini va muallifining xaqiqiylikini tekshirishda qo'llaniladigan va shaxs imzosini to'raligicha o'rnini

bosa oladigan hujjatga tegishli isbotdir. U axborot - kommunikatsiya tizimlari orqali uzatilayotgan xujjatlarni va axborotlarni haqiqiylikini tekshirishda qo'llaniladi.

Elektron raqamli imzodan muhr o'rnida foydalanish. Elektron raqamli imzodan muhr o'rnida ham foydalanish ham mumkin, bunda faqat va faqat hujjatga tegishli elektron raqamli imzo hujjatdagi barcha o'zgarishlarni yoki o'zgartirishlarni ko'rsatib beradi. Buning uchun elektron raqamli imzo yuridik shaxs nomiga, ya'ni kompaniya va tashkilotlar nomiga ruyxatdan o'tkaziladi.

Elektron hujjatning rekvizitlari. Elektron xujjatning rekvizitlari quyidagilardan iborat:

- Elektron raqamli imzo;
- Jo'natuvchi yuridik shaxsning nomi yoki jo'natuvchi jismoniy shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi;
- Jo'natuvchining pochta va elektron manzili;
- Hujjat yaratilgan sana.

Qonun hujjatlari asosida yoki elektron hujjat aylanishi ishtirokchilarining kelishuvida boshqa rekvizitlar ham belgilanishi mumkin.

Elektron kalitlar va sertifikatlar. Elektron raqamli imzoning yopiq kaliti - bu faqat xujjat muallifiga ma'lum bo'lgan va elektron hujjatda elektron raqamli imzoni hosil qilish uchun mo'ljallangan belgilar ketma-ketligi. Elektron raqamli imzoning ochiq kaliti bu elektron xujjatning kim tomonidan yuborilganligini aniqlash va uni haqiqiylikini tasdiklashda qo'llanilishi mo'ljallangan belgilar ketma-ketligi. Elektron sertifikatlar - bu sertifikatsiya tizimi qoidalariga binoan belgilangan talablarga ko'ra elektron raqamli imzo vositalarining muvofiqligini tasdiqlash uchun hamda elektron raqamli imzo kalitining sertifikati elektron raqamli imzoning ochiq kalitining elektron raqamli imzoning yopiq kalitiga mosligini tasdiqlaydigan va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasiga ro'yxatga olish markazi tomonidan berilgan hujjat.

Rivojlangan mamlakatlarda, “axborot sanoatlashgan jamiyat”da “bilimlar iqtisodi”, “axborot sanoati” kabi tarmoqlar vujudga kelmoqda, axborot va axborot texnologiya ishlab chiqarish tarmog‘i esa shiddatli rivojlanuvchi va eng daromadli tarmoqlardan biri bo‘lib bora boshladi. Agar, sanoatlashgan jamiyatda kapital strategik resurs bo‘lib hisoblansa, axborot-sanoatli jamiyatda resurs sifatida axborot, bilimlar va ijodiyotni ko‘rishimiz mumkin.

Ko‘pgina rivojlangan davlatlar o‘zlarining eksport-import siyosatlarini qayta ishlab chiqib, chetdan ko‘proq zarur bo‘lgan tabiiy resurslarni olib, tashqariga ko‘proq g‘oya, ilmiy texnikaviy bilimlarni va axborot texnologiyalarni sota boshladilar.

Masalan, Yaponiya, 1990 yillardan boshlab ko‘proq mashinalar va qurilmalarni emas, balki yangi ilmiy-texnikaviy ma‘lumotlarni, axborotlarni va axborot texnologiyalarni (“know-now”, ya‘ni so‘zma-so‘z “bilaman, qandayligicha” ma‘nosini anglatuvchi mahsulotlar va texnologiyalarni) chetga sota boshladi. Endilikda "Ogoh bo‘lsang olam seniki" degan ibora tobora ommalashib bormoqda. Aynan mana shunday sharoitlarda axborotlarni yig‘ish, saqlash, uzatish va qayta ishlash jarayonlariga nisbatan qo‘yiladigan talablar tobora ortib va qat‘iylashib bormoqda.

Axborotning amalga qo‘llanilishining zarur sharti uning o‘z vaqtidaligi va adekvatligidir. Adekvatlik bu- olingan axborot asosida qurilgan obrazning haqiqiy obektga qanchalik mosligini beradi va u 3 formaga foydalaniladi:

- Sintaktik adekvatlatililik- bu axborotni uzatish tezligi aniqligi kodlashtirish sistemasi, tashqi ta’sirlarning mavjudligi, va shu kabi jarayonlardan iborat;
- Semantik adekvatliligi- uzatiladigan axborotning ma’naviy tarkibi, obekt obraziga va real ko‘rinishiga mos kelishligi hisobga olinadi;
- Pragmatik adekvatliligi – olingan axborotni asosiy boshqariladigan jarayon bilan mos kelishini belgilaydi;

Axborot- texnologiya yondashuvning o‘zgarishi 6 – rasmda ko‘rsatilgan.

№	Davr	Axborot- texnologiya turlari	Foydalanishdan maqsad
1.	1950-1960 yillar	Injenerlik va texnikaviy masalalarni yechuvchi va statistik ma'lumotlarni qayta ishlovchi axborot- texnologiyalar.	Injenerlik hisoblarining aniqligini oshirish, statistik ma'lumotlarni qayta ishlash tezligini oshirish.
2.	1960-1970 yillar	Ishlab chiqarish va uni boshqarishni avtomatizatsiyalashga oid ma'lumotlarni qayta ishlovchi axborot- texnologiyalar..	Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatizatsiyalash, buxgalteriya hisobi va boshqaruvga oid turli hisob-kitob ishlarini takomillashtirish.
3.	1970-1980 yillar	Avtomatlashtirilgan boshqarish va qaror qabul qilishda integrallash tizimlari.	Hisobot tayyorlash, tahlil qilish jarayonlarini avtomatizatsiyalash va boshqaruv tizimini takomillashtirish.
4.	1980-2010 yillar	Strategik axborot- texnologiyalar. Avtomatlashtirilgan ofislarda, ishlab chiqarish, korporativ nazorat va boshqaruv tizimlari.	Raqobatbardoshlikni ta'minlash strategik resursi, korporatsiya, mintaqa va mamlakat miqyosidagi axborot- boshqaruvni tashkil etish.

6 – Rasm. Axborot- texnologiya yondashuvning o'zgarishi.¹⁵

6-Rasmda axborot- texnologiya yondashuvning o'zgarishi yilma yil ko'rsatilgan. O'zgarish davri to'rt turga bo'lingan bo'lib axborot- texnologiya tizimlarning rivojlanish tarixi va turli davrlarda ulardan foydalanish maqsadlarini umumiy holda tavsiflangan.

¹⁵ G'ulomov S. "Axborot tizimlari va texnologiyalari".-Toshkent "Sharq", 2010. 28 bet

I. Bob bo'yich xulosa

Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda tajribasi hozirgi dinamik rivojlanayotgan dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini iqtisodiy rivojlanishining lokomotivi ekanligini, mamlakatga investisiyalar jalb etilishiga, yangi ish o'rinlari tashkil etilishiga, ilg'or texnologiyalar ishlab chiqarishga va boshqaruvga tatbiq etilishiga, axborot ayirboshlashda, chekimlar qisqartirilishiga bozor qatnashchilari o'rtasida bitishuvlar sodir etilishiga ko'maklashishini ko'rsatadi.

O'zbekistan sharoitida korxona boshqaruvini axborot bilan ta'minlashning o'ziga xos xususiyatga ega va bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham, dissertasiya ishining 1 bobida uchta muammoli masalalar o'rganildi, bular:

- Korxona boshqaruvida kommunikatsiya va internetning ahamiyati;
- Korxona boshqaruvida axborotlar tizimi va uning bo'g'inlari;
- Korxona boshqaruvida xujjatlarni yuritish jarayonining ahamiyati;

Bu muammolarni, o'rganishda barcha qirralar o'rganilib va bu muammolar echimi ko'rsatildi.

Xulosa sifatida, hozirgi kunda korxona boshqaruvini axborot bilan ta'minlash manbalari va axborot tizimi zamon talabiga javob berilishi lozimdir.

Agarda korxona axborot bilan ta'minlash manbalari eskirgan bo'lsa, unda korxona boshqaruvini axborot bilan ta'minlash mushkul bo'ladi. Bu muammoni hal qilish korxonaning rahbariga yuklatilgan. Rahbar o'z imkoniyatlariga qarab korxonaga yangi zamon talabiga mos kompyutor va texnikalarni o'z vaqtida sotib olishi, ishchilar o'rtasida kerakli anjuman va treninglar olib borishi kerakdir.

Hozirgi kunda, Zamonaviy korxonalarda raxbar tomonidan yuqorida aytilgan ishlarni texnika va komunikatsion menejerlar bajarishadi. Buning qulay tomoni shundaki, bu menejerlar kerakli malumot va anjomlarga egadir. Menejerlar o'z ishini yaxshi bilishadi va kerakli sertifikatlariga egadir.

II. Bob. “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasida axborot bilan ta'minlash manbalari va ulardan foydalanish holati


1. “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining umumiy faoliyati tahlili

“Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasi Vazirlar Mahkamasining №523 15.12.1998 yil qaroriga binoan «Upravlenie proizvodstvenno texnicheskogo obslujivaniya i komplektasii» unitarniy predpriyatiya rus tilida nomlanib «Uzgeoneftegazdobicha» aksionernaya kompaniya qaramog’ida tashkil qilingan. Prezidentimiz Karimov Islom Abdug’anievichning farmoni №PF-446 21.08.2006 yil binoan korxonaning nomi o’zbek tiliga o’girildi. Korxonaning yangi nomi “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasi.

Hozirgi kunda “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasi “O’zneftegazqazibchiqarish” aksiyadorlik kompaniyasining tizimiga kiruvchi korxona. “O’zneftegazqazibchiqarish” aksiyadorlik kompaniyasi e’sa “O’zbekneftegaz” milliy xolding kompaniyasi qaramog’idagi korxona. Mustaqillik yillarda “O’zbekneftegaz” milliy xolding kompaniyasi Prezidentimiz Karimov Islom Abdug’anievichning 3 may 1992 yildagi qaroriga binoan “ Ob obrazovaniy Uzbekskego gosudarstvennogo koncerna neftejanoy i gazovoy promyshlennosti ” Uzbekneftegaz” rus tilida nomlanib tashkil qilingan. Prezidentimiz Karimov Islom Abdug’anievichning qarori bilan №PQ-2154 11.12.1998 yilda koncern yangi “Uzbekneftegaz” milliy xolding kompaniyasi nomi bilan qaytadan tashkil qilindi.

“O’zbekneftegaz” milliy xolding kompaniyasi mustaqillik yillarda erishgan yutuqlar:

1. 1997 yilda Buxoro neft qayta ishlovchi zavod ishga tushirilish;
2. 2000 yilda Farg’ona neft qayta ishlovchi zavodni tamirlanishi;
3. 2001 yilda Shurtan gaz kimyo kompleksi ishga tushirilish.



7 - Rasm. “O’zbekneftegaz” milliy xolding kompaniyasining tarkibiga kiruvchi korxonalar. ¹⁶.

¹⁶<http://www.ung.uz> - “O’zbekneftegaz” milliy xolding kompaniyasining rasmiy saytidan olingan.

7-Rasmda “O‘zbekneftegaz” milliy xolding kompaniyasining tarkibiga kiruvchi korxonalar ko‘rsatilgan. Bu korxonalar ikki turga ajratilgan. Birinchisi, “O‘zbekneftegaz” milliy xolding kompaniyasining tarkibiga kiruvchi 6 ta aksiyadorlik kompaniyalardir. Bu aksiyadorlik kompaniyalar milliy xolding kompaniyaning asosiy faoliyati ishlab shiqarishdir. Masalan, “O‘zgeoburneftegaz” aksiyadorlik kompaniyasi neft va gaz konlarni qidiruvini va burg‘ulash ishlarni olib boradi, “O‘zneftegazqazibchiqarish” aksiyadorlik kompaniyasi neft va gaz qazib chiqaradi va gazni qayta ishlidi, “O‘zneftegazmaxsulot” aksiyadorlik kompaniyasi neftni qayta ishlidi va saqlidi, “O‘ztransgaz” aksiyadorlik kompaniyasi gazni tarmoqlar a‘ro uzatadi, “O‘zneftegazstroyinvest” aksiyadorlik kompaniyasi invest qurilish proektlarni olib boradi va “O‘zneftegazmash” aksiyadorlik kompaniyasi esa neft va gaz qazib chiqarish, qayta ishlash va tarqatish uchun kerakli asbob uskuna va anjomlarni ishlab chiqaradi. Ikkinchisi, “O‘zbekneftegaz” milliy xolding kompaniyasining nazort ostidagi korxonalar. Bu korxonalar milliy xolding kompaniyaning asosiy faoliyati servis xizmat ko‘rsatishdir. Masalan, “O‘zLITneftgaz” OAJ va “IGIRNIGM” OAJ korxonalari milliy xolding kompaniyasining tarkibidagi institutlardir, “O‘ztashqineftegaz” OAJ milliy xolding kompaniyaga kerak bo‘lgan tovarlarni tender orqali chetdan sotib oladi, “Uzneftegazsvyaz” ShK milliy xolding kompaniyasining tarkibidagi korxonalarning o‘rtasida aloqa o‘rnatadi, “Neftegazinvest” ShK invest proektlarni olib boradi va “Neftegazdepozit” MChJ esa dapozitariya ishlarini olib boradi.

“O‘zbekneftegaz” milliy xolding kompaniyasi hozirgi kunda O‘zbekistonda e‘ng yirik korxonadir. Uning tarkibida 130 000 ziyod odamlar ishlidi. Har bir aksiyadorlik kompaniyaning tarkibida e‘sa o‘nglab korxonalar kiradi. “O‘zbekneftegaz” milliy xolding kompaniyasi yurtimizning barcha hududlarida o‘z ishini olib biradi. “O‘zbekneftegaz” milliy xolding kompaniyasi hozirgi kunda O‘zbekistonning energo resursining 96% ni ishlab chiqaradi.

“O‘zbekneftegaz” milliy xolding kompaniyasining O‘zbekistondagi faoliyati. 8 – rasmda ko‘rsatilgan.




8- Rasm. “O‘zbekneftgaz” milliy xolding kompaniyasining O‘zbekistondagi faoliyati.¹⁷

8 - Rasmda “O‘zbekneftgaz” milliy xolding kompaniyasining O‘zbekistondagi faoliyati ko‘rsatilgan. O‘zbekiston xaritasi 5 ta regionga bo‘lingan. Xaritada neft, gaz va gaz kondetsat konlari ko‘rsatilgan. Budan tashqari xaritada gaz kimyo kompleksi, gaz qayta ishlovchi va neft qayta ishlovchi zavodlarni joylashuvi ko‘rsatilgan.

“O‘zbekneftgaz” milliy xolding kompaniyasi bugungi kunda 211 ugli vodorod konlarni ochilgan, bulardan 108 gaz va gaz kondetsat konlari, 103 neft, neft-gaz va neft gaz kondetsat konlari. “Uzbekneftgaz” milliy xolding kompaniyasi yiliga 86 million tonna ugli vodorod ishlab chiqaradi. Bundan qayta ishlanadi 25% (250 ming tonna yonuvchi gaz va 125 ming tonna politelen). Eksport potentsiali 1.4 milliard AQSh Dollari.

“O‘zneftgazqazibchiqarish” aksiyadorlik kompaniyasining tarkibiga kiruvchi korxonalar 9 – rasmda ko‘rsatilgan.

¹⁷ <http://www.ung.uz> - “O‘zbekneftgaz” milliy xolding kompaniyasining rasmiy saytidan olingan.



9 - Rasm. “O’zneftgazqazibchiqarish” aksiyadorlik kompaniyasining tarkibiga kiruvchi korxonalar.¹⁸

9 - Rasm “O’zneftgazqazibchiqarish” aksiyadorlik kompaniyasining tarkibiga kiruvchi korxonalar ko’rsatilgan. “O’zneftgazqazibchiqarish”

¹⁸ <http://www.ungd.uz> - “O’zneftgazqazibchiqarish” aksiyadorlik kompaniyasi kompaniyasining rasmiy saytidan olingan.

aksiyadorlik kompaniyasi tarkibiga kiruvchi korxonalar 4 turga ajratilgan. Bular, Qazib chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxonalar, Servis xizmat ko'rsatuvchi korxonalar, Qurilish bo'yicha korxonalar va Avtotransport bo'yicha korxonalarga ajratilgan.

Qazib chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxonalar "O'zneftgazqazibchiqarish" aksiyadorlik kompaniyasining asosini tashkil qiladi. Qolgan korxonalar esa bu korxonalarga xizmat ko'rsatadi. Shunday korxonalardan biri "Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi" unitar shuba korxonasidir.


"Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi" unitar shuba korxonasi "O'zneftgazqazibchiqarish" aksiyadorlik kompaniyasiga va uning tarkibidagi korxonalarga servis xizmat ko'rsatuvchi tashkilotdir. Uning vazifasi "O'zneftgazqazibchiqarish" aksiyadorlik kompaniyasiga va uning tarkibidagi korxonalarga kerakli bo'lgan xom ashyo va tovarlar (asbob, uskuna va hokazolar) bilan taminlashdir.

"Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi" unitar shuba korxonasi o'z faolyatini O'zbekiston Respublikasining qonun va qoydalarga asoslangan holda ish olib boradi.

"Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi" unitar shuba korxonasining asosiy vazifasi xom ashyo va tovarlar (asbob, uskuna va hokazolar) bilan taminlash, saqlash va taqsimlash.

"Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi" unitar shuba korxonasiga ISO 9001/2008 halqaro standar joriy qilingan va korxona oltin sertifikatga e'gadir. Har bir xodim 9001/2008 Yaponiya, AQSh, Germaniya va boshqa mamlakatlarning etakchi ishlab chiqaruvchilar tajribasiga asoslangan, zamonaviy boshqarish uslubining xalqaro standarti bo'yicha o'qitiladi va har yili attestasiyadan o'tiladi.

"Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi" unitar shuba korxonasining tarkibiga kiruvchi korxonalar 10 – rasmda ko'rsatilgan.



10 - Rasm. “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining tarkibiga kiruvchi korxonalar.¹⁹

10 - Rasmda “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining tarkibiga kiruvchi korxonalar ko’rsatilgan. Bular 5 ta bazalar va 1ta qishloq xo’jalik bilan shug’unlanuvchi korxona. Bazalarning asosiy vazifasi xom ashyoni sotib olish, saqlash va taqsimlash kiradi. Korxonalar o’z faoliyatini mustaqil ravishda ish olib borishadi.

“Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” UShK tarkibiga kiruvchi korxonalarning iqtisodiy ko’rsatkichlari quyidagi jadvallarda ko’rsatilgan.

¹⁹ <http://www.ttvaabuk.uz> - “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining rasmiy saytidan olingan.

**“Farg’ona texnik ta’minlash va butlash” shuba korxonasining iqtisodiy
ko’rsatkichlari²⁰**

Mln so’mda

Ko’rsatkich- lar nomlanishi	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2012yil – 2008 yilga nisbatan o’sish surati/ %da
Xom ashyo aylanishi	14825.1	11154.8	13200	15800	26831	80.9
Daromad	1645	869.7	1585	1800	2809.8	70.8
Xarajat	757.1	675.4	945	936	1067.3	40.9
Foyda	887.9	194.3	640	864	1742.5	96.2

2 - Jadvalda “Farg’ona texnik ta’minlash va butlash” shuba korxonasining 5 yillik ko’rsatkichlari ko’rsatilgan. Jadvalda korxonalarning umumiy ko’rsatkichlar xom ashyo aylanishi 80.9%, daromad 70.8%, xarajat 40.9% va foyda 96.2% 2012yil – 2008 yilga nisbatan o’sish surati ko’rsatilgan.

Jadvalda 5 yillik ko’rsatkichlar farqi katta. Chunki, har yili “O’zneftgazqazibchiqarish” aksiyadorlik kompaniyasi va uning tarkibidagi korxonalar moddiy ehtiyojlari o’zgarib turadi. Bundan tashqari korxonaning geografik joylashuvidir.

Korxonaning umumiy ko’rsatkichlarning tasnifi:

1. Xom ashyo aylanishi million so’mda – bunga sotib olingan, saqlangan va tarqatilgan tovarlar hajmi kiradi;
2. Daromad million so’mda – bunga tovarlarga qoyilgan foyiz stavkasi;
3. Xarajat million so’mda - bunga tovarlarni sotib olishga, saqlashga va tarqatishga ketgan barcha xarajatlar kiradi.
4. Foyda million so’mda– bunga daromaddan xarajatni olib tashlaganda.

²⁰ “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining yillik hisobot ma’lumotlari.

“Djarqurg’on texnik ta’minlash va butlash” shuba korxonasining iqtisodiy ko’rsatkichlari ²¹

Mln so’m da

Ko’rsatkich-lar nomlanishi	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2012yil – 2008 yilga nisbatan o’sish surati/ %da
Xom ashyo aylanishi	5370.6	4007.2	4325	5890.7	6429.2	19.7
Daromad	625.7	486.5	562.9	782.2	706.1	12.8
Xarajat	480.6	399.5	471.3	600.1	512.7	6.6
Foyda	145.1	87	91.6	182.1	193.4	33.2

3 - Jadvalda “Djarqurg’on texnik ta’minlash va butlash” shuba korxonasining 5 yillik ko’rsatkichlari ko’rsatilgan. Jadvalda korxonalarning umumiy ko’rsatkichlar xom ashyo aylanishi 19.7%, daromad 12.8%, xarajat 6.6% va foyda 33.2% 2012yil – 2008 yilga nisbatan o’sish surati ko’rsatilgan.

Jadvalda 5 yillik ko’rsatkichlar farqi katta. Chunki, har yili “O’zneftgazqazibchiqarish” aksiyadorlik kompaniyasi va uning tarkibidagi korxonalar moddiy ehtiyojlari o’zgarib turadi. Bundan tashqari korxonaning geografik joylashuvidir.

Korxonaning umumiy ko’rsatkichlarning tasnifi:

1. Xom ashyo aylanishi million so’m da - bunga sotib olingan, saqlangan va tarqatilgan tovarlar hajmi kiradi;
2. Daromad million so’m da - bunga tovarlarga qoyilgan foyiz stavkasi;
3. Xarajat million so’m da - bunga tovarlarni sotib olishga, saqlashga va tarqatishga ketgan barcha xarajatlar kiradi.
4. Foyda million so’m da - bunga daromaddan xarajatni olib tashlaganda.

²¹ “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining yillik hisobot ma’lumotlari.

4-Jadval

“Muborak texnik ta’minlash va butlash”shuba korxonasining iqtisodiy ko’rsatkichlari²²

Mln so’m da

Ko’rsatkich-lar nomlanishi	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2012yil – 2008 yilga nisbatan o’sish surati/ %da
Xom ashyo aylanishi	13021.5	6595.1	10854.2	16852.1	21880,8	68.03
Daromad	3359.1	2548.2	3359.1	2830.7	3872.3	15.2
Xarajat	3050.4	2458.4	3250.4	2280	3468	14
Foyda	308.7	89.8	108.7	550.7	404.3	31

4 - Jadvalda “Muborak texnik ta’minlash va butlash”shuba korxonasining 5 yillik ko’rsatkichlari ko’rsatilgan. Jadvalda korxonalarining umumiy ko’rsatkichlar xom ashyo aylanishi 68.03%, daromad 15.2%, xarajat 14% va foyda 31% 2012yil – 2008 yilga nisbatan o’sish surati ko’rsatilgan ko’rsatilgan.

Jadvalda 5 yillik ko’rsatkichlar farqi katta. Chunki, har yili “O’zneftgazqazibchiqarish” aksiyadorlik kompaniyasi va uning tarkibidagi korxonalar moddiy ehtiyojlari o’zgarib turadi. Bundan tashqari korxonaning geografik joylashuvidir.

Korxonaning umumiy ko’rsatkichlarning tasnifi:

1. Xom ashyo aylanishi million so’m da - bunga sotib olingan, saqlangan va tarqatilgan tovarlar hajmi kiradi;
2. Daromad million so’m da - bunga tovarlarga qoyilgan foyiz stavkasi;
3. Xarajat million so’m da - bunga tovarlarni sotib olishga, saqlashga va tarqatishga ketgan barcha xarajatlari kiradi.
4. Foyda million so’m da - bunda daromaddan xarajatni olib tashlaganda.

²² “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining yillik hisobot ma’lumotlari.

“Qaroulbozor texnik ta’minlash va butlash” shuba korxonasining iqtisodiy ko’rsatkichlari²³

Mln so’mda

Ko’rsatkich-lar nomlanishi	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2012yil – 2008 yilga nisbatan o’sish surati/ %da
Xom ashyo aylanishi	3245.5	5413.9	3800.5	4255.4	5630.7	73.4
Daromad	1872.5	2260.9	1941.9	2354.2	2606.3	39.1
Xarajat	1542.2	2110.1	1647.1	1958.5	1991	29.1
Foyda	330.3	150.8	294.8	395.7	615.3	86.2

5 - Jadvalda “Qaroulbozor texnik ta’minlash va butlash” shuba korxonasining 5 yillik ko’rsatkichlari ko’rsatilgan. Jadvalda korxonalarning umumiy ko’rsatkichlar xom ashyo aylanishi 73.4%, daromad 39.1%, xarajat 29.1% va foyda 86.2% 2012yil – 2008 yilga nisbatan o’sish surati ko’rsatilgan ko’rsatilgan.

Jadvalda 5 yillik ko’rsatkichlar farqi katta. Chunki, har yili “O’zneftgazqazibchiqarish” aksiyadorlik kompaniyasi va uning tarkibidagi korxonalar moddiy ehtiyojlari o’zgarib turadi. Bundan tashqari korxonaning geografik joylashuvidir.

Korxonaning umumiy ko’rsatkichlarning tasnifi:

1. Xom ashyo aylanishi million so’mda - bunga sotib olingan, saqlangan va tarqatilgan tovarlar hajmi kiradi;
2. Daromad million so’mda - bunga tovarlarga qoyilgan foyiz stavkasi;
3. Xarajat million so’mda - bunga tovarlarni sotib olishga, saqlashga va tarqatishga ketgan barcha xarajatlar kiradi.
4. Foyda million so’mda - bunga daromaddan xarajatni olib tashlaganda.

²³ “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining yillik hisobot ma’lumotlari.

**“Toshkent texnik ta’minlash va butlash” shuba korxonasining iqtisodiy
ko’rsatkichlari²⁴**

Mln so’mda

Ko’rsatkich- lar nomlanishi	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2012yil – 2008 yilga nisbatan o’sish surati/ %da
Xom ashyo aylanishi	12456.3	9886.8	10106.7	14325.1	16720	34.2
Daromad	1265.1	639.2	720.6	1545.4	1605.9	26.9
Xarajat	645.2	479.8	459.4	725.7	753.9	16.8
Foyda	619.9	159.4	261.2	819.7	852	37.4

6 - Jadvalda “Toshkent texnik ta’minlash va butlash” shuba korxonasining 5 yillik ko’rsatkichlari ko’rsatilgan. Jadvalda korxonalarning umumiy ko’rsatkichlar xom ashyo aylanishi 34.2%, daromad 26.9%, xarajat 16.8% va foyda 37.4% 2012yil – 2008 yilga nisbatan o’sish surati ko’rsatilgan ko’rsatilgan.

Jadvalda 5 yillik ko’rsatkichlar farqi katta. Chunki, har yili “O’zneftgazqazibchiqarish” aksiyadorlik kompaniyasi va uning tarkibidagi korxonalar moddiy ehtiyojlari o’zgarib turadi. Bundan tashqari korxonaning geografik joylashuvidir.

Korxonaning umumiy ko’rsatkichlarning tasnifi:

1. Xom ashyo aylanishi million so’mda - bunga sotib olingan, saqlangan va tarqatilgan tovarlar hajmi kiradi;
2. Daromad million so’mda - bunga tovarlarga qoyilgan foyiz stavkasi;
3. Xarajat million so’mda - bunga tovarlarni sotib olishga, saqlashga va tarqatishga ketgan barcha xarajatlar kiradi.
4. Foyda million so’mda - bunga daromaddan xarajatni olib tashlaganda.

²⁴ “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining yillik hisobot ma’lumotlari.

Bosh apparat “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining iqtisodiy ko’rsatkichlari²⁵

Mln so’mda

Ko’rsatkich-lar nomlanishi	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2012yil – 2008 yilga nisbatan o’sish surati/ %da
Daromad	4789.5	1524.2	3251.4	5621.5	5811.9	21.3
Xarajat	3125.3	954.5	1658.2	2456.2	3612.8	15.5
Foyda	1664.2	569.7	1593.2	3165.3	2199.1	32.1

7 - Jadvalda Bosh apparat “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitary shuba korxonasining 5 yillik ko’rsatkichlari ko’rsatilgan. Jadvalda korxonalarning umumiy ko’rsatkichlar daromad 21.3%, xarajat 15.5% va foyda 32.1% 2012yil – 2008 yilga nisbatan o’sish surati ko’rsatilgan ko’rsatilgan.

Jadvalda 5 yillik ko’rsatkichlar farqi katta. Chunki, har yili “O’zneftgazqazibchiqarish” aksiyadorlik kompaniyasi va uning tarkibidagi korxonalar moddiy ehtiyojlari o’zgarib turadi.

Korxonaning umumiy ko’rsatkichlarning tasnifi:

1. Daromad million so’mda - bunga tovarlarga qoyilgan foyiz stavkasi;
2. Xarajat million so’mda - bunga tovarlarni sotib olishga, saqlashga va tarqatishga ketgan barcha xarajatlar kiradi.
3. Foyda million so’mda - bunga daromaddan xarajatni olib tashlaganda.

Jadvalda xom ashyo aylanish ko’rsatkichi ko’rsatilmagan. Chunki, bosh apparatda xom ashyo saqlash imkoniyati yo’q. Bosh apparat o’z shartnomalarida xom ashyoni olib ketuvchisi unga tegishli korxonalardir (“Toshkent texnik ta’minlash va butlash” shuba korxonasi, “Qaroulbozor texnik ta’minlash va butlash” shuba korxonasi, “Muborak texnik ta’minlash va butlash” shuba korxonasi, “Djarqurg’on texnik ta’minlash va butlash” shuba korxonasi va “Farg’ona texnik ta’minlash va butlash” shuba korxonasi).

²⁵ “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining yillik hisobot ma’lumotlari.

8 - Jadval.

Barcha korxonalarni hisobga olib “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining umumiy iqtisodiy ko’rsatkichlari²⁶

Mln so’mda

Ko’rsatkich - lar nomlanishi	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2012yil – 2008 yilga nisbatan o’sish surati/ %da
Xom ashyo aylanishi	48919	37058	42286.4	57123.3	77491.7	58.4
Daromad	13557	8328.7	11421	14934	17412.3	28.4
Xarajat	9600.8	7077.7	8431.4	8956.5	11406.7	18.7
Foyda	3956.1	1251	2989.5	5977.5	6006.6	51.8

8 - Jadvalda Barcha korxonalarni hisobga olib “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining umumiy 5 yillik ko’rsatkichlari ko’rsatilgan. Bular, “Djarqurg’on texnik ta’minlash va butlash” shuba korxonasi, “Farg’ona texnik ta’minlash va butlash” shuba korxonasi, “Muborak texnik ta’minlash va butlash” shuba korxonasi, “Qaroulbozor texnik ta’minlash va butlash” shuba korxonasi, “Qaroulbozor texnik ta’minlash va butlash” shuba korxonasi, “Toshkent texnik ta’minlash va butlash” shuba korxonasi va bosh apparat “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasi.

Jadvalda korxonalarning umumiy ko’rsatkichlar xom ashyo aylanishi 58.4%, daromad 28.4%, xarajat 18.7% va foyda 51.8% 2012yil – 2008 yilga nisbatan o’sish surati ko’rsatilgan ko’rsatilgan.

Yuqorida ko’rsatilgan korxonalar bir biri bilan o’zaro aloqada bo’lishadi. “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining bosh apparati esa bu korxonalarning xom ashyo aylanishini nazorat qiladi.

Jadvalda “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining “Agroplusneftegaz” shuba korxonasi ko’rsatilmagan. Chunki, “Agroplusneftegaz” shuba korxonasi 2012 yil oxirida tashkil topilgan.


²⁶ “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining yillik hisobot ma’lumotlari.

2. “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxona boshqaruvida axborotdan foydalanish tahlili

Boshqaruv axborotlari o‘ta turli-tuman bo‘lganligi tufayli mazkur boshqarish qarorlarini ishlab chiqish uchun zarur va yetarli axborotni tanlab olish ancha qiyin. Barcha axborotlarni o‘ziga xos belgilariga qarab tur va guruhlariga ajratish, ya’ni klassifikatsiya qilish yoki tasniflash, bu qiyinchilikni bartaraf etish yoki bir oz yengillashtirishga ma’lum darajada yordam beradi.

Turkumlanganda axborot tizimi har tomonlama soddalashadi, shuningdek, uni to‘plash, uzatish va turlarga ajratish osonlashadi, buning natijasida rahbar xodimlar axborot bilan to‘liqroq ta’min etiladi. “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasida shu kabi muommalarni xal etish uchun ko‘pgina ishlar olib boriladi. Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasida axborotlarni qabul qilish va yuborish uchun hamma shart – sharoitlar yaratilgan. Masalan, korxonaga internet, telefon tarmoq (O‘zbekiston hududida va tashqari bilan aloqa uchun), matbuot va pochta (AQShning “DHL” kompaniyasi) tizim joriy qilingan. Bundan tashqari, “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasida boshqaruvni axborot bilan ta’minlash uchun ISO 9001/2008 Yaponiya, AQSh, Germaniya va boshqa mamlakatlarning etakchi ishlab chiqaruvchilar tajribasiga asoslangan, zamonaviy boshqarish uslubining xalqaro standarti joriy qilingan va har bir ishchi o‘z ish faoliyatida shu standart asosida ish olib boradi. Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasiga kiruvchi va chiquvchi yozma axborotlar o‘zining qo‘llanishiga qarab registrasion nomerega ega. Korxonada vertikal kommunikatsiyalardan tashqari, gorizontal kommunikatsiyalar ham mavjud. Ma’lumki korxonalarda turli-xil funktsional bo‘limlar va boshqa bo‘limlarning mavjudligi ular orasidagi axborot oqimining kerakligini anglatadi.

“Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasida axborot aylanish tizimi 11 – rasmda ko‘rsatilgan.



11 - Rasm. “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasida axborot aylanish tizimi ²⁷

11 - Rasmda “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasida axborot aylanish tizimi ko’rsatilgan. Bosh apparatda 34 ishchi ishlidi. Korxonaning asosiy ishlab chiqarishga ta’luqli bolimlar bu “O’zneftgazqazibchiqarish” aksiyadorlik kompaniyasiga servis xizmat ko’rsatuvchi va ta’minlovchi bo’limlar va guruxlardir. Ular o’z nomlanishiga qarab servis xizmat ko’rsatib va xom ashyo bilan ta’minlashadi.

²⁷ <http://www.ttvaabuk.uz> - “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining rasmiy saytidan olingan

“Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasi boshqaruvda foydalaniladigon axborotlarni turkumlanishi 12 – rasmda ko’rsatilgan.

№	Turkumlash belgilari	Guruhlar
1.	Mazmuniga qarab	• iqtisodiy • huquqiy • ijtimoiy • texnikaviy • tashkiliy
2.	Kelish manbai va foydalanish joyiga qarab	• ichki axborot • tashqi axborot
3.	Kimga mo’ljallanganligiga qarab	• korxona uchun • bo’lim uchun • tsex uchun • uchastka uchun
4.	Barqarorlik xarakteriga qarab	• oddiy axborot • shartli-doimiy axborot • o’zgarib turuvchi axborot
5.	Foydalanish uchun tayyorligiga qarab	• dastlabki axborot • oraliq axborot • yakuniy axborot
6.	Davriyligiga qarab	• smenali axborot • sutkali axborot • kvartallik va h.k. axborot
7.	Boshqaruv jarayonidagi vazifasiga qarab	• direktiv axborot • hisobot ko’rinishidagi axborot • hisobga olish bo’yicha axborot • nazorat qilish bo’yicha axborot
8.	Voqealarning kelib chiqishini aks ettirish vaqtiga qarab	• tarixiy axborot • joriy axborotlar • perspektiv axborotlar
9.	Mo’ljallanganligiga qarab	• bir maqsadli axborotlar • ko’p maqsadli axborotlar
10.	Mustahkamlash va saqlash imkoniyatiga qarab	• og’zaki axborotlar • yozma axborotlar • ovozli axborotlar • tasvirli axborotlar va h.k.
11.	Muhimligiga qarab	• o’ta muhim axborot (ko’rsatma, qo’llanma) • muhim bo’lmagan axborotlar va h.k.
12.	To’liqligiga qarab	• to’liq, kompleks axborotlar • to’liq bo’lmagan axborotlar
13.	Xarakteriga qarab	• individual axborotlar • funktsional axborotlar • universal axborotlar
14.	Ishonchliligiga qarab	• ishonchli axborotlar • ehtimolli axborotlar

12 – Rasm. “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasi boshqaruvda foydalaniladigon axborotlarni turkumlanishi²⁸

²⁸“Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining Muvofiqlashtirish va axborot bo’limining ma’lumotlari.

12 – Rasmda “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasi boshqaruvda foydalaniladigon axborotlarni turkumlanishi ko’rsatilgan. Jadvalda axborotlarni turkumlanishiga ko’ra 14 turga ajratilgan. Ularninig har biri esa guruhlariga ajratiladi. “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasi boshqaruvda foydalaniladigon axborotlar ISO 9001/2008 Yaponiya, AQSh, Germaniya va boshqa mamlakatlarning etakchi ishlab chiqaruvchilar tajribasiga asoslangan, zamonaviy boshqarish uslubining xalqaro standarti asosida yaratilgan “Upravlenie dokumentatsiey i zapisyami” rus tilida nomlangan prosedura asosida ishlov beriladi.

“Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasi tashqi muhit bilan aloqa bog’lashda, turli-tuman vositalardan foydalanadi. Mavjud haridorlar bilan ular reklama orqali bog’lanibgina qolmay, maxsulotni bozorga olib kiradigan boshqa dasturlardan ham foydalanadi. Bunga asosan,:

1. TeleFaks orqali. Bu tarmoq orqali yozma axborotlar, og‘zaki axborotlar, ovozli axborotlar va tasvirli axborotlar bilan korxona boshqaruvi axborot bilan ta’minlanadi. Bu tarmoq orqali axborot almashuvi anchcha qimmat;

2. Internet orqali. Bu tarmoq orqali yozma axborotlar, og‘zaki axborotlar, ovozli axborotlar va tasvirli axborotlar bilan korxona boshqaruvi axborot bilan ta’minlanadi. Bu tarmoq orqali axborot almashuvi anchcha arzon, qulay va tezdir;

3. Kurer orqali. Bu tarmoq orqali yozma axborotlar, og‘zaki axborotlar, va tasvirli axborotlar bilan korxona boshqaruvi axborot bilan ta’minlanadi. Bu tarmoq orqali axborot almashuvi ko’b vaqt talab etadi;

4. Matbuot orqali. Bu tarmoq orqali yozma axborotlar bilan korxona boshqaruvi axborot bilan ta’minlanadi. Masalan, rus tilida nomlangan «PresTij» jurnalidagi chop etilgan axborotlar.

5. Xat orqali. Bu tarmoq orqali yozma axborotlar bilan korxona boshqaruvi axborot bilan ta’minlanadi. Bu tarmoq orqali axborot almashuvi ko’b vaqt va sarmoya talab etadi.

Axborotlar “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining ichida bosqichma-bosqich, ya’ni vertikal kommunikatsiyalar orqali o’tadi. Axborotlar yuqori boshqaruv organlaridan, pastki organlarga o’tadi. Shuningdek pastki organlardan yuqori boshqaruv bo’limlariga axborotlar oqimi keladi. Aynan ikkinchi jarayon korxonalarda ijobiy o’zgarishlarga olib keladi. Korxonada vertikal kommunikatsiyalardan tashqari, gorizontal kommunikatsiyalar ham mavjud.

Ma’lumki korxonalarda turli-xil funktsional bo’limlar va boshqa bo’limlarning mavjudligi ular orasidagi axborot oqimining kerakligini anglatadi. Masalan, fundamental texnologiya asosida, korxona turli-xil maxsulotlar ishlab-chiqarishi mumkin, shuning uchun ham marketing bo’limining axborot ahamiyatligini saqlab qoladi va uning talablarini o’z vaqtida qondirilishini ta’minlaydi.

“Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasida axborotni himoyalash kompleks tizimi foydalanuvchilar axborot kommunikatsiya tizimlarini servislar bilan xavfsiz ta’minlash uchun mo’ljallangan. Himoyalash tizimi o’z ichiga kirishni boshqarish, autentifikatsiya, avtorizatsiya va zahirali nusxalash modullarini olgan, ruxsatsiz kirishlarni nazorat qilish, foydalanuvchilar ustunliklarini boshqarish, axborot kommunikatsiya tizimlari axborot bazalarida saqlanadigan ma'lumotlarni himoya qilish va zahira nusxa ko’chirish uchun qo’llaniladi, Himoya tizimi qulay interfeysga ega va axborot kommunikatsiya tizimlarini tashqi hujumlardan himoyalash uchun qo’llanilishi mumkin.

Bundan tashqari, “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasida axborot xavfsizligiga tahdid soluvchi xavf-xatarlarning ahamiyatini aniqlash dasturi yo’lga qo’yilgan. Dastur axborot tizimlari axboroti xavfsizligini tadqiqotlashga mo’ljallangan bo’lib, axborotni qayta ishlash uchun hisoblash texnikasi vositalaridan foydalanilganda korxona yoki tashkilot axborot xavfsizligiga tahdidlar ahamiyati ehtimolliklarini aniqlash qobiliyatiga ega, axborot xavfsizligiga tahdidlar ma'lumotnomasi va ekspertlar ro'yxatini yaratish imkonini beradi.

“Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasida axborotlar bilan ishlovchi dasturlarni o’z vaqtida yangilanish muammolari birinchi o’rinda turadi.

Shu muammolarni bartaraf etishda O‘zbekiston Respublikasining “UNICON.UZ” - Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi Davlat unitar korxonasi tomonidan bir nechta zamonaviy dasturlar ishlab chiqildi, bular:

1. E-XAT muhofazalangan elektron pochta tizimi. E -XAT muhofazalangan elektron pochta tizimi E -XAT tizimi foydalanuvchilari o’rtasida elektron xabarlar bilan muhofazalangan almashinuvni tashkil etish uchun mo’ljallangan. Muhofazalangan elektron pochta tizimi axborotni kriptografik muhofaza qilish sohasidagi davlat standartlari asosidagi axborotni kriptografik muhofaza qilish vositalari va elektron raqamli imzo vositalaridan foydalanadi. Muhofaza qilish vositalaridan foydalanish hisobiga E-XAT tizimi axborot xavfsizligining quyidagi talablariga javob beradi:

2. E-Hujjat elektron hujjat aylanishi dasturi. E-Hujjat elektron hujjat aylanishi tizimi legitim elektron hujjatlar bilan almashinuvni tashkil etish, shuningdek tashkilotda ish yuritishning mavjud tizimini takomillashtirish va avtomatlashtirish uchun mo’ljallangan.

Tizimda “Elektron raqamli imzo to’g’risida”gi va “Elektron hujjat aylanishi to’g’risida”gi qonunlarning talablariga muvofiq elektron hujjatlarning yuridik jihatdan ahamiyatliligini ta’minlash maqsadida bu hujjatlarni imzolash uchun elektron raqamli imzo qo’llaniladi.

3. HIMFAYL fayllarini muhofazalangan saqlash dasturi. HIMFAYL fayllarini muhofazalangan saqlash tizimi shaxsiy kompyuter (kompyuterning “Provodnigi”da) yoki axborotning tashqi diskli tashuvchilarida saqlanadigan papka va fayllarning maxfiyligi (kofidentsialligi)ni, butunligini va ulardan ruxsatsiz foydalana olishdan muhofaza qilishni ta’minlash uchun mo’ljallangan.

Tizimning qo’llanishi saqlanadigan elektron ma’lumotlarni ruxsatsiz foydalana olishdan, ko’rib chiqishdan yoki ularni o’zgartirish (buzish)dan muhofaza qilish imkonini beradi.

3. “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasi boshqaruvini zamonaviy dasturlar bilan ta’minlash tahlili

Hozirgi davrda korxonalarning turli bo‘linmalari faoliyatini boshqarish, eng avvalo tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish turli-tuman axborotlarga bog‘liq. Axborotlarning xilma-xilligi har bir boshqaruv ob‘ektining faoliyati ko‘p tomonlamaligi bilan, boshqaruv sohalari ham turli-tumanligi bilan belgilanadi. Bular esa pirovard natijada ishlab chiqarish jarayonlari miqyosining kattaligi, o‘ta murakkabligi va davom etish sur‘atlarining yuqoriligi bilan bog‘liqdir. Boshqaruv axborotlari o‘ta turli-tuman bo‘lganligi tufayli mazkur boshqarish qarorlarini ishlab chiqish uchun zarur va yetarli axborotni tanlab olish ancha qiyin. Barcha axborotlarni o‘ziga xos belgilariga qarab tur va guruhlariga ajratish, ya‘ni klassifikatsiya qilish yoki tasniflash, bu qiyinchilikni bartaraf etish yoki bir oz yengillashtirishga ma‘lum darajada yordam beradi.

“Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasida tatbiq e‘tilgan zamonaviy dasturlar quyidagilardir:

1. “Skype” Bu dastur orqali korxona xodimlari global interten orqali og‘zaki, video tasvirli, yozma va ovozli axborotlar almashadi.
2. “BEM” Bu dastur korxona muhosibxonasidagi hisobchilarning hisob kitobiga ko‘maklashuvchi dastur.
3. “Norma” Bu dastur korxonani me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ta'minlidi.
4. “VED INFO” Bu dastur, bojxona ishi, eksport va import opersiyalar bajarish to‘g‘risidagi elektron axborot beradi.
5. “Venta Faks & Voice” Bu dastur korxona boshqaruvini telefon tarmoq orqali elektron yozma va tasvirli axborotlar bilan ta'minlaydi.
6. “ЕВФРАТ-Документооборот”. Bu dastur rus tilida nomlangan bo‘lib, korxona boshqaruvini lokal tarmoq orqali elektron yozma va tasvirli axborotlar bilan ta'minlaydi.

Yuqoridagi dasturlar quyidagi rasmlarda ko‘rsatilgan.



13 - Rasm. “Skype” dasturining ko’rinishi.²⁹

13 - Rasmda “Skype” dasturining ko’rinishi ko’rsatilgan. “Skype” dasturi AQShning “Microsoft Corporation” korxonasining tomonidan ishlab chiqilgan. Bu dastur dastur orqali korxona xodimlari global interten orqali og’zaki, video tasvirli, yozma va ovozli axborotlar almashadi. “Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining barcha xodimlari “Skype” dasturidan foydalanishadi.

“Skype” dasturining avzalliklari:

1. Axborot almashish tizimi ancha qulay;
2. Axborot almashish tezligi yuqori;
3. Axborot almashish tizimi ancha arzon;
4. Axborot almashish tizimi zamon talabiga to’la javob beradi.
5. Video axborot almashish imkonini beradi;
6. Ovozli axborot almashish imkonini beradi.

²⁹ <http://www.skype.com> «Microsoft Skype Division» korxonasining rasmiy sayti olingan.

Счет-фактура: №1

0,00 ☒ Зачет аванса

Номер: [] Дата: [] Покупатель: 000 "SIGL-GLASS BUSINESS" X ...

Счет: (4820) Платежи к получению по крат Договор: Договор №17 X ...

Счет доходов: (9350) Доходы от краткосрочной арен Расчетный счет контрагента: Основной X ...

Ставка НДС: Без НДС Основание: []

Расчетный счет наш: НБУ ВЭД ХАМЗИНСКИЙ Ф-Л

Организация: 000 "TUROB-SAYDO"

☐ Показать SWIFT организации

☐ Экспорт

№	ТМЗ	Сумма
1	аренда трансформатора	300 000,00
		300 000,00

Комментарий: []

OK Сохранить Закрыть

14- Rasm. “BEM” dasturining ko’rinishi.³⁰


14- Rasmda “BEM” dasturining ko’rinishi ko’rsatilgan. “BEM” dasturi O’zbekistonning MChJ “BEM SYSTEMS” korxonasining tomonidan ishlab chiqilgan.

Bu dasturining tipovoy versiyasi kichik va o’rta biznes korxonalari buxgalteriyasining asosiy uchastkalarini O’zR qonunchiligiga muvofiq ravishda avtomatlashtirish imkoniyatini beradi . BEMda 30dan ortiq yuqori malakali mutaxassislar: dasturchilar va buxgalterlar faoliyat ko’rsatmoqda. Ular orasida CAP va CAT sertifikatlariga ega bo’lganlari bor.

“Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining hisobchilari o’z ishida qo’llidi.

“BEM” dasturi O’zbekistonda birinchi elektron muhosibchilik uchun ishlatiladigon dastur. Bu dasturning analogi, Rossiyaning “1C” dasturidir.

³⁰ <http://www.bem.uz> MChJ “BEM SYSTEMS” korxonasining rasmiy saytidan olingan.



15 - Rasm. “Norma” dasturining ko’rinishi.³¹

15 - Rasmda “Norma” dasturining ko’rinishi ko’rsatilgan. “Norma” dasturi O’zbekistonning MChJ «Norma Hamkor» korxonasining tomonidan ishlab chiqilgan.


Bu dastur korxonani me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ta'minlaydi. “Norma” dasturi O’zbekistonda ishlab chilgan.

“Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining barcha xodimlari “Norma” dasturidan foydalanishadi.

“Norma” dasturining avzalliklari:

1. Axborot almashish tizimi ancha qulay;
2. Axborot almashish tezligi yuqori;
3. Axborot almashish tizimi ancha arzon;
4. Axborot almashish tizimi zamon talabiga to'la javob beradi.

³¹ <http://www.norma.uz> MChJ «Norma Hamkor» korxonasining rasmiy saytidan olingan.



16- Rasm. “VED INFO” dasturining ko’rinishi.³²


16 - Rasmda “VED INFO” dasturining ko’rinishi ko’rsatilgan. “VED INFO” dasturi O’zbekistonning MChJ "SBS-Infsoft" korxonasining tomonidan ishlab chiqilgan. Bu dastur korxonani eksport va import opersiyalar bajarish uchun to’g’risidagi elektron axborot bilan ta’minlaydi. “VED INFO” dasturi O’zbekistonda ishlab chilgan.

“Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining barcha xodimlari “VED INFO” dasturidan foydalanishadi.

“VED INFO” dasturining avzalliklari:

1. Axborot almashish tizimi ancha qulay;
2. Axborot almashish tezligi yuqori;
3. Axborot almashish tizimi zamon talabiga to’la javob beradi.
4. Ishlatilishda ancha arzon;
5. Yozma axborot beradi.

³² <http://infsoft.shbsgroup.com> MChJ "SBS-Infsoft" korxonasining rasmiy saytidan olingan.



17 - Rasm. “Venta Faks & Voice” dasturining ko’rinishi.³³

17 - Rasmda “Venta Faks & Voice” dasturining ko’rinishi ko’rsatilgan. “Venta Faks & Voice” dasturi Rossiyaning MChJ “Venta” korxonasining tomonidan ishlab chiqilgan.


Bu dastur korxona boshqaruvini telefon tarmoq orqali elektron yozma va tasvirli axborotlar almashish imkonini beradi.

“Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining barcha xodimlari “Venta Faks & Voice” dasturidan foydalanishadi.

“Venta Faks & Voice” dasturining avzalliklari:

1. Axborot almashish tizimi ancha qulay;
2. Axborot almashish tezligi yuqori;
3. Axborot almashish tizimi ancha arzon;
4. Axborot almashish tizimi zamon talabiga to’la javob beradi;
5. Elektron xujjatlashtirish tizimiga o’tish imkon yaratadi.
6. Yozma axborot beradi.
7. Axborotlarni elektron saqlash imkonini beradi.

³³ <http://venta.ru> MChJ “Venta” korxonasining rasmiy saytidan olingan.



18 - Rasm. “ЕВФРАТ-Документооборот” dasturining ko’rinishi.³⁴

18 - Rasmda “ЕВФРАТ-Документооборот” dasturining ko’rinishi ko’rsatilgan. “ЕВФРАТ-Документооборот” dasturi Rossiyaning MChJ “Cognitive Technologies” korxonasining tomonidan ishlab chiqilgan. Bu dastur dastur orqali korxonaga kelvotgan barcha yozma axborotlarni electron ko’rinishda xodimlar lokal tarmoq orqali tarqatadi.

“Texnik ta’minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining barcha xodimlari “ЕВФРАТ-Документооборот” dasturidan foydalanishadi.

“ЕВФРАТ-Документооборот” dasturining avzalliklari:

1. Axborot almashish tizimi ancha qulay;
2. Axborot almashish tezligi yuqori;
3. Axborot almashish tizimi zamon talabiga to’la javob beradi;

³⁴ <http://www.evfrat.ru> MChJ “Cognitive Technologies” korxonasining rasmiy saytidan olingan.

4. Barcha kelvotgan va korxona ichida aylanvotgan axborotlarni elektronlashtirib ularning kelajakda ko‘b marta nusxalashtirishga chek qo‘yadi (qog‘oz tejalanadi);
5. Axborotlarni tartibga soladi (ya‘ni turkumlashtiradi);
6. Bajaruvchiga yetazadi;
7. Nazorat qiladi.

Bundan tashqari bu dastur “Texnik ta‘minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasiga ko‘bgina samaradorlik olib kelgan. Masalan, “Texnik ta‘minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining xar yili olinvotgan A4 formatdagi qog‘ozlar olinishi keskin qisqartilishiga olib keldi.

9 – Jadval.

“Texnik ta‘minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining qog‘oz olish ko‘rsatkichi³⁵

№	Yillar	Qog‘ozlar ning soni/ (pochka) dona	Qog‘ozlarning yillik narxi so‘m/O‘z.Res	Qog‘ozlarning yillik summa so‘m/O‘z.Res	Qog‘ozlarning summasi 2010 yilga nisbatan qisqarilishi/ %da
1.	2010	198	11 000	2 178 000	-
2.	2011	162	12 000	1 944 000	10,74
3.	2012	132	12 000	1 584 000	27,27
4.	2013	108	13 500	1 458 000	33,06

9 – Jadvalda “Texnik ta‘minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining qog‘oz olish ko‘rsatkichi ko‘rsatilgan. Jadvalda qog‘ozlarning summasi 2010 yilga nisbatan 2011 yilda 10.74%, 2012 yilda 27.27% va 2013 yilda 33.06% ni tashkil etgan. 2010 yil qog‘oz soniga 2011 yilning qog‘oz narxiga nisbatan 432 000 so‘m tejanildi, 2012 yil qog‘oz narxiga nisbatan 792 000 so‘m tejanildi va 2013 yil qog‘oz narxiga nisbatan 1 215 000 so‘m tejanildi. Bu esa korxonaga 3 yil ichida 2 439 000 so‘mlik sarmoyadorlik olib keldi.

³⁵ “Texnik ta‘minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining moliya guruhi tomonidan berilgan.

II. Bob bo'yich xulosa

Hozirgi kunda, “Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasi axborot bilan ta'minlash manbalari va ulardan oqilona foydalanishi o'ziga katta etibor qaratadi. Dissertasiya ishining ikkinchi bobida “Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining uchta masala o'rganildi, bular:

- “Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining umumiy faoliyati tahlili;
- “Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxona boshqaruvida axborotdan foydalanish tahlili;
- “Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasi boshqaruvini zamonaviy dasturlar bilan ta'minlash tahlili;

Bu masalalarni, o'rganishda barcha qirralar o'rganidi

Xulosa sifatida, shuni ta'kidlashimiz mukinki “Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasi tomonidan tatbiq etilgan zamonaviy dasturlar hozirgi kunda eng aktual dasturlardan birlaridir va bundan tashqari mavjud bo'lgan muammolarni o'z echimida topadi.

Tatbiq etilgan zamonaviy dasturlar o'ziga katta talab etadi. Shuning uchun ham, “Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasida zamonaviy dasturlar va texnikalarga texnika va komukatsion menejer xizmat ko'rsatadi. Bu esa, “Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining boshqaruvini kerakli axborot bilan ta'minlash imkoni beradi.

Hozirgi kunda, “Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasida tatbiq etilgan zamonaviy dasturlar o'z samaradorligini berdi. Bunga misol bo'lib, “Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining 5 va 6 jadvallardagi besh yilli ko'rsatkichlardir.

Bundan tashqari, 7 jadvaldagi ko'rsatkich zamonaviy dasturlar qo'llanish natijasida korxona qog'oz tejamkorligi orqali samaradorlik ko'rsatilgan.

III. Bob. O'zbekiston Respublikasida axborot kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlanish muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari

1. Korxonada elektron axborot tizimini samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari

Ishlab chiqarish samaradorligi har bir korxona faoliyatining eng asosiy vazifasi hisoblanadi. U xo'jalik yuritishning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini, shuningdek, buyumlashgan va jonli mehnat xarajatlari hamda olingan natijalar o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi.

“Samara”, “samaradorlik”, “ ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik” kabi tushunchalarning orasidagi farqni anglab olish zarur.

Samara – bu, ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat), foyda va daromad hajmini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishni kamaytirish yoki umuman, yo'q qilish bilan bog'liq bo'lgan korxona faoliyatining ijobiy natijalaridir. Bu yutuqlar natural shaklda ishlab chiqarish samarasini, pul shaklida esa iqtisodiy samarani tavsiflaydi.

Samaradorlik, avvalo, korxona faoliyatining sifat jihatlarini tavsiflovchi tushunchadir. U “samara” toifasidan kelib chiqadi hamda unga qaraganda murakkab va kompleks tavsifga ega.

Samaradorlik chora sifatida ko'plab texnik, iqtisodiy, loyiha va xo'jalik qarorlarini avvaldan belgilab beradi. Korxona o'zining xo'jalik, ilmiy-texnik va investitsion siyosatini belgilashda samaradorlikdan kelib chiqadi. Iqtisodiy samaradorlik samaradorlikka qaraganda bir muncha tor ma'noni anglatadi. U qabul qilinayotgan qarorlarning xo'jalik yuritishda maqsadga muvofiqligini tavsiflaydi hamda barcha hollarda samaraning unga erishish uchun ketgan xarajatlari (ishlab chiqarish resurslari)ga nisbati sifatida aniqlanadi.

Xarajatlari qanchalik kam bo'lsa (mahsulot sifatiga ta'sir qilmagan holda), samara shunchalik ortadi, demak, iqtisodiy samaradorlik ham ortadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish samaradorligini mehnat

sharoitlarini, uning ijodkorlik mazmunini boyitish, aqliy va jismoniy mehnat o'rtasidagi farqni yo'qotishni inobatga olgan holda tavsiflaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik bir vaqtning o'zida, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish, korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, shaxsning har tomonlama rivojlanishi va uning barcha qobiliyatlaridan foydalanishning sabab va natijasi hisoblanadi.

Bevosita ijtimoiy samara, xodimlarning bilim va malakasi, tajriba va madaniyatining o'sishi, aholi sog'lig'ining yaxshilanishi va umr ko'rishining uzayishida aks ettiriladi.

Ishlab chiqarish samaradorligi ijtimoiy samaradorlikka nisbatan birlamchi hisoblanadi: iqtisodiy yutuqlar korxonaning ijtimoiy muammolarini hal qilishga yordamlashadi. Masalan, foydaning o'sishi, jamg'armalarning ortishi korxonaga ijtimoiy vazifalar doirasini kengaytirish va ularni hal qilish imkonini beradi.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish – korxona rahbariyatining doimiy vazifasidir. Bu vazifani yechish amaliyotda quyidagi omillar bilan bog'liq bo'ladi:

1. Bozor talablariga javob beruvchi yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishda eng kam xarajatlar bilan ishlab chiqarishning maksimal hajmini ta'minlovchi, optimal ishlab chiqarish jarayonini tanlash;
2. Iste'molchilar talabini qondirishga yo'naltirilgan mahsulotni sotish va yuqori daromad (foyda) olish;
3. Aylanma vositalarni tejash imkoniyatini yaratuvchi optimal ishlab chiqarish zahiralarini yaratish.

Hozirgi kunda korxonalarning turli bo'linmalari faoliyatini boshqarish, eng avvalo tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish turli-tuman axborotlarga bog'liq.

Davlat boshqaruvida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va tizimlarini joriy etishning jaxon xamjamiyatida shakllanayotgan tendentsiyalari va tajribasi ushbu jarayonlarning ko'plab jixatlari, eng avvalo anik va muqobil

tartibga solishni talab etishini yaqqol kursatadi.

Bunga esa quyidagilar kiradi:

- Har bir kishining davlat xokimiyati va boshqaruv organlarining umumfoydalanadigan axborot resurslari va axborot tizimlaridan axborotni erkin olishga bo'lgan xuquqini amalga oshirish;
- Internet tarmog'i yordamida amalga oshiriladigan korxonalar va davlatning iqtisodiy faoliyatini xuquqiy ta'minlash;
- Elektron xujjatlar aylanishining faoliyat ko'rsatishi va axborot-kommunikatsiya tizimlarida aylanib yuradigan elektron xujjatlarning xaqiqiylikni tasdiqlash vositalaridan foydalanish tartibini belgilash;
- Axborot xavfsizligini, maxfiy axborotning ruxsat berilmagan kirishlardan ishonchli ximoya qilishni ta'minlash.

Tabiiy xolki, umuman jamiyatda axborotlashtirish soxasida konunchilikni shakllantirish va takomillashtirish bunda asos buluvchi jixat xisoblandi, chunki xuddi shu jamiyat, uning xar xil institutlari va fukarolarning uzi davlat boshkaruvida elektron texnologiyalar joriy etilishini xis kilishlari va uning afzalliklarini urgangan xolda foydalanishlari kerak bo'ladi.

Davlat apparatini islox kilish va tegishli jarayonlarni ishonchli normativ-xuquqiy tartibga solishni ta'minlashning muximligini inkor kilmagan xolda biz baribir axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tegishli infratuzilma va ushbu tizimlarda ishlash uchun professional tayyorlangan mutaxassislarning mavjudligi boshqaruvni "elektronlashtirish" tizimlarini joriy etish vazifalari muvaffaqiyatli xal etilishini ta'minlaydigan asosiy shart ekanligini e'tirof etishimiz kerak.

Ko'plab rivojlangan mamlakatlar tajribasi hozirgi dinamik rivojlanayotgan dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari iqtisodiy rivojlanishining lokomotivi ekanligini, mamlakatga investitsiyalar jalb etilishiga, yangi ish o'rinlari tashkil etilishiga, ilg'or texnologiyalar ishlab chiqarishga va boshkaruvga tatbik etilishiga, axborot ayirboshlashda, chikimlar kiskartirilishiga bozor qatnashchilari urtasida bitishuvlar sodir etilishiga ko'maklashishini

ko'rsatadi. Shuning uchun ham O'zbekiston xukumati mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim ustuvorligi sifatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilishini ajratib ko'rsatadi.

Bilim va axborot jarayonlarning mahsuldorligini oshirishda bosh omil hisoblanadi. Axborot kechayotgan ilmiy-texnik revolyutsiyaning muhim resursli qismi hisoblanadi.

Bosqichli-formatsiyali va tsivilizatsiyali model doirasida axborot jamiyati nazariyasining aniqlangan mosligi muhim hisoblanadi. Buni axborot jamiyatining mohiyatini jamiyatni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish bosqichi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadal rivojlanishiga asoslangan globallashuvning tahdidiga javob sifatida tushunish orqali ochib beriladi.

Axborot jamiyatini shakllantirish amaliyoti keng va xilma-xildir. Rivojlangan mamlakatlar bugunning o'zida axborot jamiyatining ko'p sonli loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirmoqdalar. Sayyoraning yaxlit axborot rivojlanishiga maksimal e'tiborni qaratish lozim, chunki bu yana bitta (juda jiddiy) mexanizm bo'lib, uning yordamida axborotlashtirishdan foyda olishda boy va kambag'al mamlakatlar o'rtasidagi farqlanish yanada kuchayishi mumkin.

Mustaqil O'zbekistonda axborot jamiyatini tashkil qilish loyihalari keng joriy qilinmoqda. Mamlakatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishning keng ko'lami bo'yicha ish olib boriladi, jumladan, qulaylik rejimini ta'minlash bo'yicha me'yoriy-huquqiy ishni, aniq loyihalarni amalga oshirish, mutaxassislarni tayyorlash va aholining kompyuter savodxonligini oshirish va hokazo.

Axborotlarning xilma-xilligi har bir boshqaruv ob'ektining faoliyati ko'p tomonlamaligi bilan, boshqaruv sohalari ham turli-tumanligi bilan belgilanadi. Boshqaruv axborotlari o'ta turli-tuman bo'lganligiga qaramay axborotlarning asosiy turlarida biri elektron hujjat ko'rinishda bo'lishi. Elektron hujjat ko'rinishdagi axborotlar juda ko'b muammolarga duch keladi, bulardan biri:

1. Elektron hujjatlarni saqlash, muhofaza qilishni va maxfiyligi ta'minlash;

2. Elektron hujjatlarni ro'yxatga olish va rahbarlar imzosini qo'yish;
3. Elektron hujjatlar bajarilishini markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan tarzda nazorat qilish;
4. Elektron hujjatlarni uzoq masofaga yetkazib berilishida uning xavfsizligini
5. ta'minlash va boshqa shu kabi muammolar kiradi.

Tarmoqni rivojlantirishning ilmiy asoslangan siyosatini o'tkazish, aloqa sohasining normativ-huquqiy bazasini yaratish, uskunaning telekommunikatsiya tarmoqlarida qo'llanadigan standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish kabi yo'nalishlarini rivojlantirish, yangi texnika va texnologiyalarning joriy etilishini ilmiy-texnik qo'llab-quvvatlash maqsadida 1992 yilning oktyabr oyida O'zbekiston Respublikasining Aloqa vazirligi tomonidan aloqa sohasidagi Ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi. Bugungi kunga kelib, "UNICON.UZ" - Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi Davlat unitar korxonasi – 35 ta tarkibiy bo'linmalardan iborat hamda faoliyatning aloqa va axborotlashtirish sohasi uchun ustuvor bo'lgan har xil turlari bilan shug'ullanadigan yirik ilmiy-tadqiqot tashkiloti hisoblanadi.

Markazning asosiy vazifalari:

- Aloqa va axborotlashtirish sohasining zamonaviy normativ-huquqiy bazasini yaratish;
- Aloqa va axborotlashtirish sohasini rivojlantirishning dolzarb yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish;
- Yangi texnologiyalarni joriy etish.

Normativ hujjatlarni ishlab chiqish va ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- Yangi avlod telekommunikatsiya tarmoqlarini, yangi axborot texnologiyalari va xizmatlarini joriy qilish;
- Telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish, tarmoqlararo ulanishlar va turli xildagi telekommunikatsiya xizmatlari trafiginini o'tkazish;

- Pochta aloqasi;
- Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi;
- Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish;
- Marketing tadqiqotlari va tarif siyosati;
- Axborot xavfsizligi, kriptografiya;
- Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye, elektromagnit moslashuv, simsiz aloqa texnologiyalarini joriy qilish;
- Sifat menejmenti tizimlarini joriy qilish;
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi atamalarni davlat tilida ishlab chiqish va joriy etish;
- Tiklanadigan energiya manbalari sohasidagi tadqiqotlar va boshqalar.

Shu bilan birga, “UNICON.UZ” - Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi Davlat unitar korxonasida quyidagilar amalga oshiriladi:

- Aloqa va axborotlashtirish texnik vositalarini standartlashtirish;
 - Telekommunikatsiya texnik vositalarini sertifikatlashtirish;
- Aloqa va axborotlashtirish sohasidagi metrologik ta‘minot va o‘lchashlar birligini ta‘minlash:
- Aloqa ob‘ektlarining davlat kadastrini yuritish;
 - Standartlar, axborotni muhofaza qilish protokollari va vositalarini ishlab chiqish;
 - Elektromagnit moslashuv tahlili;
 - Loyiha-smeta hujjatlarini ekspertiza qilish;
 - Marketing tadqiqotlari va konsultatsiyalarini o‘tkazish;
 - Elektron raqamli imzo kalitlarini ro‘yxatga olish markazi faoliyatini amalga oshirish;
 - Dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish;
 - Axborot-tahliliy va noshirlik faoliyatini amalga oshirish.

2. Korxonada elektron axborot kommunikatsiya infratuzilmasini samarali joriy etish istiqbollari

Har qanday jamiyatda davlatning roli masalasi dolzarb bo'lib kelgan. Bu masalaning muhimligini hisobga olib, bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'zbek modeli va demokratik jamiyat barpo etishning asosiy printsiplaridan biriga jamiyatning barcha soxalarida isloxotlarni amalga oshirishda davlatning yetakchilik roli printsipli asos qilib olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydagi PF-3080-sonli Farmoni va Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2002 yil 6 iyundagi 200-son karori ushbu vazifani amalda ruyobga chiqarishga yunaltirildi. Ularda axborot jamiyatini rivojlantirishning strategik ustuvorliklari belgilandi, 2002-2010 yillarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturi qabul qilinib u amalga oshirilmoqda. Uning asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:

- Telekommunikatsiya infratuzilmasini va Internet tarmogining milliy segmentini rivojlantirish;
- Axolini kompyuter texnikasi va tegishli tarmoq resurslari bilan jixozlash bo'yicha rivojlangan mamlakatlar darajasida mavjud qoloqlikni bartaraf etish;
- Dasturiy ta'minotning milliy industriyasini barpo etish;
- Mamlakatning yagona axborot makonini tashkil etish uchun zarur bo'lgan milliy resurslarni shakllantirish;
- Yuqori malakali kadrlar saloxiyatini tayyorlash;
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari soxasida raqobat muxitini rivojlantirish;
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tegishli texnik vositalarni standartlashtirish va sertifikatsiyalashni rivojlantirish;
- Axborot xavfsizligini ta'minlash;

- Tegishli investitsiya va innovatsiya loyixalari ustuvor moliyalashtirilishi va kredit berilishini ta'minlash.

Davlat boshqaruvida axborot-kommunikatsiya texnologiya tizimlarini joriy etish uchun mamlakatda to'liq faoliyat kursatuvchi infratuzilma xaqida aytib utishga xali bor.

Sababi davlat boshqaruvi organlarining korporativ tarmogi, elektron xujjatlar aylanish tizimi, fuqarolar va biznes sub'ektlarining axborotni avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash tizimlari shakllanish bosqichini o'tamoqda.

Davlat boshqaruvida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etishga umumiy tayyorgarlik turt mezonidan uchta eng muximi bo'yicha mamlakat printsiptial jixatdan ushbu texnologiyalarni joriy etishga tayyorgarlikning darajasiga ega.

Bu xolatda, to'liq funktsional texnologiyalarning mavjudligi yoki yo'qligi jiddiy rol o'ynamaydi, chunki tegishli dasturiy apparat komplekslari va korporativ tarmoqli resurslar bevosita axborot-kommunikatsiya texnologiya tizimlarini joriy etish davomida tashkil etilishini xisobga olish zarur.

Shuningdek, ko'pgina pozitsiyalar buyicha vaziyat dinamik uzgarmoqda. Tegishli davlat axborotiga biznes sub'ektlari va fuqarolarning onlayn kirishini ta'minlaydigan xizmatlarning yetarlicha keng xajmi tugrisida ishonch bilan gapirish mumkinligini kursatadi.

Davlat boshqaruvida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etish masalalari o'z moxiyatiga ko'ra, muammolarning juda muxim bo'lgan murakkab doirasini o'z ichiga olib, uni shakllantirishga yondashuvlarni ishlab chiqishdan elektron davlat xizmatlariga bo'lgan extiyojni aniqlash va uni amalda ta'minlashgacha bo'lgan muammolar xisoblanadi.

O'zbekiston axborot jamiyatini shakllantirishning boshlangich bosqichida turgan xolda maqsadga muvofiq va qulay modelni tanlashdek murakkab muammo qarshisida turibdi.

Har bir mamlakatda axborot jamiyatini tashkil etishni jaxon tajribasi uz xususiyatlariga ega va bu tayyor etalon bula oladigan ba'zi bir tavsiyalarni bera olmaydi. Aniqroq qilib aytganda, davlat boshqaruvida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tatbiq etish mamlakatning o'zining siyosiy iqtisodiy yunalishlariga, davlat tuzilishining xususiyatlariga, davlatning biznes sub'ektlari va aholi bilan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari rivojlanishi darajasiga va rivojlanishning mazkur bosqichida xal qilinishi zarur vazifalar doirasiga boglikdir.

Respublikamizda axborot-kommunikatsiya texnologiya soxasida ilgari hech qachon bunday ijtimoiy jamiyatli, texnik jixatdan murakkab, ma'suliyatli, ilm-fanni va resurslarni ko'p talab qiladigan vazifani xal e'tmagan.

Bundan davlat boshqaruvi tizimini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish va samaradorligini oshirishni ta'minlashi va quyidagi vazifalarni xal etishi kelib chiqadi:

- Mamlakatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturini tez sur'atlarda amalga oshirish;
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining normativ-huquqiy bazasi monitoringi va ularni joriy qilinishiga to'siq bo'layotgan omillarni aniqlash;
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish monitoringi va uning xolatini to'lik royhatdan o'tkazish, xujjatlarning elektron aylanishi tizimlarini joriy etish jarayonlarini hamda davlat boshqaruvi organlarining moliyaviy, texnik va inson resurslari holatini o'rganish;
- Davlat boshqaruvi organlarining yagona axborot tarmogini tashkil qilish;
- Davlat xizmatchilari va axolini o'qitib borish uchun maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini davlat byudjeti xisobidan doimiy ravishda moliyalashtirilib borilishini davlat siyosati darajasiga chiqarish va hokazo.

Turgan gapki, bular bir kunda xal bo'ladigan vazifalar emas. Bularni mamlakatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlanishi darajasi va tendentsiyalaridan kelib chikkan xolda fakatgina nazariy kurib chikish mumkin.

Ammo, davlat boshkaruvida axborot-kommunikatsiya texnologiyalar tizimlarini tashkil etish va rivojlantirishning kontseptual yondashuvlari va jaxon tajribalari bir kancha birinchi navbatda turgan vazifalarni kursatish imkonini yaratib beradi. Buni xal emasdan turib esa davlat boshqaruviga axborot-kommunikatsiya texnologiyalariyajoriy etish ro'yobga chiqmaydigan orzu bo'lib q'oladi, bular:

Bugungi kunda ro'y berayotgan ilmiy-texnik revolyutsiya asosan, bilimlar va axborotning roli muhim darajada o'sishi bilan bog'liq hamda ishlab chiqarish munosabatlarning yangi tuzilmasiga o'tishni anglatadi.

O'zbekiston axborot-kommunikatsiya texnologiyalar sektorini ixtisoslashgan ilmiy-texnik zonalarni tashkil qilish orqali faollashtirishga qaratilgan faoliyat samarali hisoblanadi.

Soliq bojxona va ma'muriy qulaylik rejimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini sohasining faol rivojlanishi mumkin, va bu mamlakatdagi makroiqtisodiy vaziyatning yanada yaxshilanishiga olib keladi.

Hozirgi kunda globallashuv jarayonlarini baholashning zamonaviy ahvolining sharhi mazkur fenomenni tushunishda mavjud bo'lgan yondashuvlarni tasniflash, globallashuv jarayonlarning tizimli oqibatlarini aniqlashga yordam beradi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiyotlarini yagona axborot iqtisodiyotiga global jalb qilinishi jarayonlarini maqbullashtirishning muhim ahamiyati ochib berilgan. Globallashuv jarayonining iqtisodiy va ijtimoiy asoslari ko'rsatilgan.

Statistik ma'lumotlarning tadqiqot misolida zamonaviy iqtisodiyotda xalqaro savdoni kuchayishi faxborot-kommunikatsiya texnologiyalariyai isbotlangan, globallashuvni baholashda "pessimistik" yondashuvning asossizligi ko'rsatilgan.

Elektron savdo hajmlarining tahlili o'tkazilgan va uning asosida xalqaro tovar bozorlarining o'sib borayotgan globallashuvi haqida xulosa qilingan.

Globallashuv sharoitida siyosiy institutlar faoliyati masalalarini tadqiq qilish hamda zamonaviy xalqaro munosabatlari tizimining transformatsiyasini o'rganish doirasida mamlakatlarni yagona axborot maydoniga kirishini maqbullashtirish borasidagi milliy davlat instituti negizida yotgan katta salohiyat borligi ko'rsatilgan.

Milliy davlatni rezident xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishning samarali instituti sifatida roli va ahamiyati o'sadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol rivojlantirish orqali davlat boshqaruvining transformatsiyasi ro'y beradi. "Elektron hukumat" fuqarolarga "xizmat ko'rsatish darajasini maksimal yaxshilash va o'z ishining samaradorligini oshirish maqsadida o'zining ishlab chiqarish munosabatlari tizimini sifatli o'zgartirayotgan "klassik" hukumatni transformatsiyasining mahsuli hisoblanadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari siyosiy tizimning ichki va tashqi aloqalari hamda mexanizmlarining tuzilmasini tubdan o'zgartiradi. Ichki o'zgarishlar tizimda qarorlarni qabul qilish texnologiyalarini o'zgartirishga taaluqlidir. Bunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash hisobiga yangi imkonga ega bo'lgan siyosiy sub'ektlar o'z faoliyatlarining samaradorligini keskin oshirish imkonini oladilar.

Ya'ni, gap qiziqtirayotgan jarayonlar va hodisalar to'g'risida bundan ko'ra batafsil, to'liq va har tomonlama ma'lumotni olish, jarayonlarni avtomatlashtirish hamda buning asosida siyosiy maydonda o'zini xulqining maqbullashtirilgan modellarini ishlab chiqish haqida ketmoqda.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlanishi siyosatda texnologiyalarning yangi turi – axborot-kommunikatsiya siyosiy texnologiyalari (AKST) haqida gapirishga ruxsat beradi. Bunda texnologik yorib o'tish muhim hisoblanib, mavjud bo'lgan axborotni muolajasiga kompyuter-kommunikatsiya jihatini qo'shishga yordam beradi.

10- Jadval.**O'zbekiston Respublikasida axborot va telekommunikatsiya jadal rivojlanib kelishi³⁶**

№	Ko'rsatkichlar	2008-y	2009-y	2010-y	2011-y	2012-y
1.	ATSlarning raqamlashtirilishi (%)	88,8	91,3	93,7	94,9	97,1
2.	Mobil aloqa abonentlari soni (ming.)	12650,4	16738,6	22660	25441,8	-
3.	Ma'lumotlar uzatish xalqaro tarmoqlariga bog'lanish umumiy tezligi (o'tkazuvchanligi), (Mbit/s)	825	1270	2560	4850	5145
4.	Ma'lumotlar uzatish tarmoqlari va internet xizmatlarini ko'rsatuvchi operator va provayderlarning umumiy soni	856	958	933	945	936
5.	Internetga jamoat bo'lib bog'lanuvchi punktlar soni (dona)	744	856	894	1053	1050
6.	Internet foydalanuvchilari soni (ming)	2468	4689	7378	8827,8	9100,8
7.	.UZ hududidagi domen nomlari soni (dona)	7600	9551	11087	13386	14013
8.	Elektron raqamli imzo kalitlariniro'yxatga olish Markazlari soni (dona)	3	6	8	9	9
9.	Berilgan kalitlar va elektron raqamli imzo kalitlari sertifikatlari soni (dona)	28900	50399	167034	206767	230221
10.	Interaktiv davlat xizmatlari (dona)	49	94	94	94	197
11.	Davlat axborot resurslari (dona)	171	187	186	186	195
12.	Davlat axborot tizimlari (dona)	51	70	79	97	98

10- Jadvalda O'zbekiston Respublikasida axborot va telekommunikatsiya jadal rivojlanib kelishi ko'rsatilgan. Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy saytidan olingan. Jadvalda 2008 yildan boshlab to 2012 yillardagi axborot va telekommunikatsiya ko'rsatkichlar ko'rsatilgan. Jadval zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlanishi siyosatda texnologiyalarning yangi turi – axborot-kommunikatsiya siyosiy texnologiyalari haqida gapirishga ruxsat beradi.

³⁶ [http:// www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy saytidan olingan.

III. Bob bo'yich xulosa

O'zbekistan sharoitida korxona boshqaruvini axborot bilan ta'minlashning o'ziga xos xususiyatga ega va bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham, dissertasiya ishining uchinchi bobida uchta muammoli masalalar o'rganildi, bular:

- Korxonada elektron axborot tizimini samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari;
- Korxonada elektron axborot kommunikatsiya infratuzilmasini samarali joriy etish istiqbollari.

Bu muammolarni, o'rganishda barcha qirralar o'rganilib va bu muammolar echimlari ko'rsatildi.

Xulosa sifatida, shuni ta'kidlashimiz mukinki yuqorida ko'rsatilgan O'zbekiston Respublikasining hukumati tomonidan joriy qilingan axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish (tendensiyalari) yo'llari o'z samaradorligini berdi va bundan tashqari mavjud bo'lgan muammolarni o'z echimida topdi.

Bundan tashqari, yuqorida kersatilgan O'zbekiston Respublikasining «UNICON.UZ» - Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi Davlat unitar korxonasi tomonidan yaratilgan zamonaviy dasturlar hozirgi kunda eng aktual dasturlardan birlaridir. va bundan tashqari mavjud bo'lgan muammolarni o'z echimida topadi.

Rivojlangan mamlakatlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini iqtisodiy rivojlanishining lokomotivi ekanligini, mamlakatga investisiyalar jalb etilishiga, yangi ish o'rinlari tashkil etilishiga, ilg'or texnologiyalar ishlab chiqarishga va boshqaruvga tatbiq etilishiga, axborot ayirboshlashda, chekimlar qisqartirilishiga bozor qatnashchilari o'rtasida bitishuvlar sodir etilishiga ko'maklashishini ko'rsatganligi sababli. Yurtimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga katta etibor qaratilgan.

X U L O S A

Ma'lumki mustaqillik sharofati bilan Vatanimizda demokratik huquqiy asoslari davlat qurilmoqda. Xalqimizning azaliy orzusi ruyobga chiqdi va bu davlat qadim zamonda paydo bo'lgan o'zbek davlatchiligining mantiqiy davomidir. Uni shakli va mazmuni jihatdan hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan axborot tizimini barpo etilishidir.

Disertasiyada bajarilgan ish O'zbekistondagi korxona boshqaruvini axborot bilan ta'minlash samaradorligini oshirish yo'llarini o'rganishdan iborat bo'lgan va shu mavzuni to'liq yoritish uchun, korxona boshqaruvini axborot bilan ta'minlash manbalari va axborot tizimining nazariy asoslarining o'ziga xos xususiyatlari ko'rib o'tilgan. Korxona boshqaruvida kommunikatsiya va internet tushunchasi, axborotlar tizimi va uning bo'g'inlari va xujjatlarni yuritish jarayonining nazariy jihatlari ko'rib o'tilgan. "Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi" unitar shuba korxonasi misolida, uni axborot bilan ta'minlash manbalari va ulardan foydalanish holatining tahlili amalga oshirilgan. Korxonaning umumiy faoliyati, unung tarkibi, boshqaruvda qo'llanilvotgan axborot turlari, korxonaning infratuzilmasini zamonaviy dasturlar orqali samaradorligini oshirish holati o'rganilgan va magistr fikr mulohazalari keltirilgan. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning axborot kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlanish muommolari va ularni bartaraf etish yo'llari bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar tizimi ishlab chiqilgan. Korxonada elektron axborot tizimini samaradorligini oshirish muammolarini bartaraf etish yo'llari va kommunikatsiya infratuzilmasini takomillashtirish istiqbollari to'grisida o'z tavsiyalar berilgan.

Xulosa sifatida, korxona boshqaruvini axborot bilan ta'minlash manbalari va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari ko'b. Ammo, dissertasiyaning asosiy mezonini korxona boshqaruvidagi tatbiq etilgan zamonaviy dasturlar tizimi kata etibor qaratilgan. Chunki, Ma'lumotlarning elektron shakli xayotning barcha jabxalarida inson faoliyati xarakterini o'zgartirmoqda. Korxona tomonidan yo'qotilgan axborot - bu natija va

boshqaruvning yoqotilganidir. Shuning uchun axborot tizimlari qurilishida qo'yiladigan strategik maqsad, korxona erisha oladigan oqimlarining barchasini jamlashga sharoit yaratish, ofisda avtomatlashgan ish joyini integrasi qilishga kerak bo'lgan axborot oqimlari: nutq, tasvir, matn, ma'lumotlarni olishdir.

Ish mavzusuda olingan obekt yani, "Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi" unitar shuba korxonasida axborotlarni qabul qilish va yuborish uchun hamma shart – sharoitlar yaratilgan. Ayniqsa, "Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi" Unitar shuba korxonasida qo'llanivotgan zamonaviy dasturlardir. Bu zanonaviy dasturlar, "Texnik ta'minlash va butlash boshqarmasi" unitar shuba korxonasining korxona boshqaruvini axborot bilan ta'minlashning mutloq avtomatlashtirilganlikka o'tganligiga sababdir va bu zanonaviy dasturlardan oqilona foydalana olishi koxonaga kata samaradorlik olib kelishi bejiz emasdir.

Taklif sifatida, rivojlangan mamlakatlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini iqtisodiy rivojlanishining lokomotivi ekanligini, mamlakatga investisiyalar jalb etilishiga, yangi ish o'rinlari tashkil etilishiga, ilg'or texnologiyalar ishlab chiqarishga va boshqaruvga tatbiq etilishiga, axborot ayirboshlashda, chekimlar qisqartirilishiga bozor qatnashchilari o'rtasida bitishuvlar sodir etilishiga ko'maklashishini ko'rsatganligi sababli. Yurtimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga katta etibor qaratilgan. Shuning uchun ham quyidagi takliflar berilishi mumkin:

- Korxona boshqaruvini axborotlar bilan ta'minlash manbalarini o'z vaqtida modernizatsiya qilish;
- Korxona boshqaruvini axborotlar bilan ta'minlovchi zamonaviy dasturlarni joriy qilish;
- Korxona boshqaruvidaga axborotlardan unumli va oqilona foydalanish;
- Korxonada elektron axborot tizimini joriy qilish
- Korxonada elektron axborot tizimidan samarali foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari:

1.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.- T.: O'zbekiston, 2012 yil.

1.2. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'grisida" gi Qonuni №560-II Qabul qilingan sana 11.12.2003 yil, kuchga kirish sanasi 11.02.2004 yil.

1.3. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hujjat aylanishi to'grisida" gi Qonuni №611-II Qabul qilingan sana 29.12.2004 yil, kuchga kirish sanasi 20.05.2004 yil.

1.4. O'zbekiston Respublikasining "Elektron raqamli imzo to'grisida" gi Qonuni №562-II Qabul qilingan sana 11.12.2003 yil, kuchga kirish sanasi 29.01.2004 yil.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar mahkamasining qarorlari:

2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydagi "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi PF-3080-sonli Farmoni.

2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 21 dekabrda "2011 — 2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish to'g'risida" PQ-1446-sonli qarori.

2.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 iyundagi "2002-2010 yillarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish" to'g'risidagi Maxkamasining 200-sonli Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari ma'ruzalari va nutqlari:

3.1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir.– Toshkent: "O'zbekiston", 2010 yil 80 bet.

3.2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.:O'zbekiston, 2009 yil 23 bet.

3.3. Karimov I.A. “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi” mavzusidagi ma‘ruzasini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. - T.: “O‘zbekiston”, 2012 yil 36 bet.

3.4. Karimov I.A. 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmat sayti 2013 yil 18 yanvar.

3.5. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.// Xalq so‘zi, 2011 yil. 22 yanvar.

3.6. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish — ustuvor maqsadimizdir.- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasi // Xalq so‘zi 28.01.2010 yil.

3.7. Karimov I.A. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 21 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda nutqi.// O‘zbekiston ovozi, 2012 yil 1 sentyabr.

3.8. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo‘lini izchil davom ettirish- taraqqiyotimizning muhim omilidir.// Ishonch. 2010-yil 8-dekabr.

3.9. Karimov I.A. “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi” mavzusidagi ma‘ruzasi. – “Xalq so‘zi” gazetasi, 2012 yil 12 yanvar.

3.10. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasi // Xalq so‘zi, 2010 yil 28 yanvar.

4. Asosiy adabiyotlar:

4.1. Кузнецова А.И. Инфраструктура: Вопросы теории, методологии и прикладные аспекты современного инфраструктурного обустройства. Геоэкономический подход. М.: Кои Книга, 2010. – 456стр.

4.2. Комаров М.П. Инфраструктура регионов мира: Учебник. -- СПб, Издательство Михайлова В.А., 2000, 347 с.

4.3. Xamdamov O'. R. - Axolini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan yaqindan tanishtirish va targ'ibot qilish uchun instruktor o'qituvchilarni tayyorlash va o'qitishga mo'ljallangan o'quv-uslubiy majmuasi. Toshkent 2012 yil 132 bet

4.4. G'ulomov S. "Axborot tizimlari va texnologiyalari".-Toshkent "Sharq", 2010 yil 119 bet

4.5. Raxmatullaev A.I. «Menejment va marketing asoslari» fanidan ma'ruza matnlari. – Q.: QMII, 2010 y. 148 bet

5. Qo'shimcha adabiyotlar:

5.1. Xodiev B.Yu. "Iqtisodiyot" o'zbekcha ruscha lug'at – O'zbekiston 2013 yil 86 bet.

5.2. Oripov M., Haydarov A. Informatika asoslari-Toshkent "O'qituvchi" 2002 yil 86 bet

5.3. Игнатьев В.А. - Информационная безопасность современного коммерческого предприятия. Издательство:Старый Оскол:ТНТ, 2005г,366 с.

5.4. Александр Алешин Техническое обеспечение безопасности бизнеса, Издательство: Дашков и Ко, 2012г, 160 с.

5.5.Алексенцев А.И.— Конфиденциальное делопроизводство. ООО «Журнал «Управление персоналом», 2003г. - 200 с.

6. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobatlari:

6.1. "Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar" nomli ilmiy elektron jurnalining №6, 2013yil.

6.2. «Megabyte» nomli elektron jurnali 2013yil mart.

6.3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2008-2012 yildagi statistik to‘plamlari 16.01.2013 yil.

6.4. “Texnik ta‘minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining iqtisodiy hisobotlari.

7. Internet saytlar:

7.1.<http://www.gov.uz> - O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portal.

7.2.<http://www.press-service.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati.

7.3.<http://lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi.

7.4.<http://www.stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.

7.5.<http://www.economyworld.com> – Axborot Texnologiyalari Assosatsiyasi web-sayti.

7.6.<http://www.ttvabbuk.uz> - “Texnik ta‘minlash va butlash boshqarmasi” unitar shuba korxonasining rasmiy saytidan

7.7.<http://www.ung.uz> - “O‘zbekneftegaz” milliy xolding kompaniyasining rasmiy sayti.

7.8.<http://www.ungd.uz> - “O‘zneftegazqazibchiqarish” aksiyadorlik kompaniyasi kompaniyasining rasmiy sayti.

7.9.<http://www.skype.com> - «Skype Division» korxonasining rasmiy sayti.

7.10.<http://www.bem.uz> - MChJ “BEM SYSTEMS” korxonasining rasmiy sayti.

7.11.<http://www.norma.uz> - MChJ «Norma Hamkor» korxonasining rasmiy sayti.

7.12.<http://www.infosoft.shbsgroup.com> - MChJ "SBS-Infosoft" korxonasining rasmiy sayti.

7.13.<http://www.venta.ru> - MChJ “Venta” korxonasining rasmiy sayti.

7.14.<http://www.evfrat.ru> - MChJ “Cognitive Technologies” korxonasining rasmiy sayti.